1. Niyozali Ortiqmatovning “Jamoa ijrochiligi va uslubiyoti” (Respublika metodika va axborot markazi. T.: 2008) o’quv qo’llanmasidagi boblar asosida referat yozish.
2. Olga Anatolevna Vasil’chenkoning “ Xorovoy klass” ( T.: 2008) o’quv qo’llanmasidan xor asarlarini moslashtirish bo’limini o’zlashtirish.
3. I. K. Nazarenkoning “Iskusstvo peniya ” . (Moskva, Музыka nashriyoti 1968 544-579 betlar ) xrestomatiyasidan “Shalyapin ob iskusstve” bo‘limini konspektlashtirish.
4. Rahmatilla Nosirovning “Xurshid atongdur, oy-ano...” ( Toshkent islom universiteti, Toshkent- 2003. www.classic music.uz) o‘quv qo‘llanmasidan ashulalar janrini aniqlash.
5. Rahmatilla Nosirovning “Cholg’u ijrochiligi ” (Respublika metodika va axborot markazi Toshkent 2008. 5-10 betlar) o‘quv qo‘llanmasidan joy olgan Musiqiy cholg’ulari tarixi, turlari haqida yozma ish yozish.
6. Soibjon Begmatovning “Hofizlik san’ati” ( Musiqa nashriyoti Toshkent-2007. ) o‘quv- uslubiy qo‘llanmasi xonandalik san’ati bo’limini tahliliy o’rganish.
7. Ozoda Nazarovaning “El sevgan san’atkorlar”(“O’ZBEKISTON” NMUY, Toshkent-2008) kitobidan o‘zbek vokal san’atining namoyondalari hayotiga doir bo’limlarni qiyosiy o’rganish.
8. Temur Mahmudov tuzgan “Ona yurtim”( Respublika metodika va axborot markazi T.: 2006) to’plamidan joy olgan asarlarni tahliliy o’rganish.
9. Orzu Azimovaning “The World of sounds of Karakalpaks”«Zvukovoy mir karakalpakov » (Swiss confederation Tashkent 2008) risolasi asosida Qoraqalpoq xalq baxshilari va sozlari mavzusida yozma ish tayyorlash.
10. Ahmad Jabborovning “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” (Yangi asr avlodi T.: 2004.) ma’lumotnomasidan vocal va estrada san’ati namoyondalari ijodi haqida referat yozish.
11. Sobir Mirvaliev va Rixsiya Shokirovalarning “O‘zbek adiblari ” (Fan. T.: 2007) o’quv qo’llanmasidan qo’shiqchi shoirlar ijodi haqida mustaqil ish yozish.
12. Jahon Estrada yulduzi Sami Yusuf hayoti va ijodi haqida referat yozish.
13. Qo’shimcha adabiyot: Rustam Jabborovning “Iymon va e’tiqod kuychisi Sami Yusuf haqida” maqolasi (“Bekajon” 31 05 2007)

http://forum. ziyouz.com/

## Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1 Y. Rajabiy "O'zbek xalq musiqasi" Olti tolik T. ,1958-195y. .
2.Y. Rajabiy "Shashmaqom" T. ,1964y.
3.Q. Usmonov "Rubob taronalari" O'qituvchi n. T. ,1995y.
4. G'aniyeva "Tanovarlar" T. , 2003y.
5.A. Umarov "Tanbur taronalari" T. ,2004y.
6. "Afg'on rubobi" T. , 2005y.
7.Y. Haqqulov "Doira uchun pesalar". O'qituvchi T., 1978y.
8.R. Tursunov "Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti". T., 2002y.
9.N. Qosimov "Folklor musiqa ijrochiligi". T. , 2003y
10. S. Jumayev "Sozlar sadosi". T. , 2001y.

## 4. Masalalar, mashqlar to'plami (1-2 blok fanlarida) O'qitilayotgan quyidagi fan o'quv rejasining 4-blokida 4.1.01 "Mutaxassislikka kirish" deb ko'rsatilgan.

## 5. Test savollari

**1. Mutaxassislikka kirish fanining maqsadi.**
a) amaliy ilm o'rgatish ;
b) nazariy ilm o'rgatish;
v) madaniyat va ma'rifat haqida tushuncha berish;
g) o'tiladigan maxsus fanlar mazmun –mohiyatini anglatish.

**2. Mutaxassislikka kirish fanining vazifasi.**
a) maxsus fanlar haqida tushuncha berish;
b) vokal ijrochisi tayyorlash;
v) badiiy rahbar tayyorlash;
g) madaniyat xodimi tayyorlash.

**3. Xor asarlarini moslashtirish nima?**
a) bir ovozli kuyni moslashtirish;
b) bastakor asarini moslashtirish;
v) oranjirovka qilish;
g) ma'lum bir kuyni xor ijrosi uchun moslashtirish.

**4. Dirijyorlik amaliyotida qanday ish bajariladi?**
a) guruh tashkil etish ;
b) ansambl tuzish ;
v) hujjatlar bilan tanishish;
g) xor kollektivi bilan bevosita ishlash;

**5. Musiqa asarlari tahlili fanining vazifasi nima?**
A) ma'lum bir asarni qismlarga bo'lib, tahlil qilish;
b) bastakor ijodini tahlil qilish;
v) xalq ijodini tahlil qilish;
g) xor asarlarini tahlil qilish.

**6. Raqsbop ashula ijrochisini toping?**
a) vokal ijrochisi;
b) yallachi;
v) laparchi;
g) oqin
**7. Garmoniya iborasining ma'nosi?**
a) monodiya ;
b) polifoniya;
v) akkord;
g) ohangdoshlik, bog'lanish.
**8. Ashulaning tugallanish bo'lagini ayting.**
a) miyonxat ;
b) avj;
v) furovard;
g) katta avj.
**9. Partitura iborasi nimani anglatadi?**
a) orkestr musiqasining nota yozuvi;
b) xor musiqasining nota yozuvi;
v) estrada musiqasining nota yozuvi;
g) hammasi to'g'ri.
**10. Dinamik tuslar.**
a) R, RR, MR, F, FF;
b) fortissimo, piano;
v) forta, piano;
g) hammasi to'g'ri.
**11. Xor solfedjiosi deganda:**
a) notaga qarab kuylash ;
b) partitura o'qish ;
v) solfedjio;
g) xor partiyalarini kuylash.
**12. Jo'rnavoz kim?**
a) kontsertmeyster;
b) xor xonandasi;
v) katta ashulachi;
g) maqom ijrochisi.
**13. Musiqa nazariyasi fani nimani o'rgatadi?**
a) musiqiy terminlarni;
b) dinamik belgilarni;
v) nota savodini ;
g) hammasi to'g'ri.
**14. Polifoniya iborasi qay javobda to'g'ri?**
a) bir ovozli;
b) ko'p ovozli;
v) guruxli;
g) ansambl.
**15. Suvoralar qaysi maqom turkumiga oid?**

a) Xorazm ;
b) Buxoro;
v) Toshkent;
g) Farg‘ona.

**16. Katta ashula qaysi voxaga tegishli?**
a) Surxondaryo;
b) Toshkent;
v) Buxoro;
g) Farg‘ona.

**17. Mutaxassislikka kirish fanining o‘rganish ob’ekti.**
a) maxsus fanlarning mazmun mohiyatini o‘rganadi;
b) nazariy ilmlarni o‘rganadi;
v) madaniy va ma’rifiy ilmlarni o‘rganadi;
g) amaliy ilmlarni o‘rganadi.

**18. Dirijyorning asosiy vazifasi nima?**
a) jamoaga rahbarlik qilish;
b) kontsertmeysterlik;
v) guruh rahbarligi;
g) musiqa rahbarligi.

**19. Dirijyorlik amaliyoti qayerda o‘tiladi?**
a) oliygohda;
b) teatrda;
v) madaniyat uyida;
g) xor jamoasi bor tashkilotda.

**20. Diapazon iborasining ma’nosi?**
a) kuyning tovush hajmi;
b) oktava;
v) septima;
g) kvartsekstakkord.

**21. Dramatik tenor qaysi toifaga tegishli?**
a) ayollarga;
b) erkaklarga;
v) bolalarga;
g) o‘smirlarga.

**22. Rubobning sozlanishi?**
a) lya, mi, si;
b) si, fa, do;
v) lya, re, si;
g) do, sol, re.

**23. Metronom qanday asbob?**
a) cholg‘u asbobi;
b) sozlash asbobi;
v) musiqa sur’atini belgilovchi asbob;
g) temp sur’atini tezlatuvchi asbob.

**24. Notaga qarab kuylash qaysi fanga tegishli?**
a) musiqa tarixiga;

b) estrada san'atiga;
v) solfedjioga;
g) maqom asoslariga.

**25. SHashmaqom qaysi vohaga oid?**
a) Xorazmga;
b) Buxoroga;
v) Farg'onaga;
g) Toshkentga.

**26. Xalq ladlari qaysi?**
a) dovudiy, miksolidiy;
b) ishkamiy, guligiy;
v) lidiy, eoliy, frigiy;
g) torli, tirnama, urma.

**27. Ko'p ovozli qanday ataladi?**
a) monodiya;
b) garmoniya;
v) polifoniya;
g) hammasi to'g'ri.

**28. Mumtoz musiqiy merosimiz qanday ataladi?**
a) xalq musiqasi;
b) folklor musiqasi;
v) simfonik musiqasi;
g) maqomot.

**29. "Bayot"lar qaysi maqom yo'llariga xos?**
a) Toshkent;
b) Xorazm;
v) Samarqand;
g) Buxoro.

**30. "Xurshid atongdur, oy - ano..." o'quv qo'llanmasining mavzusi?**
a) vatanparvarlik;
b) maishiy;
v) sevgi-muhabbat;
g) ota-ona.

**31. «Xalq qo'shiqlari kompozitsiyasi" monografiyasi muallifi kim?**
a) Bahodir Sarimsoqov;
b) Rahmatjon Tursunov;
v) Rahmatilla Nosirov;
g) Nozim Qosimov.

**32. Maxsus fanlar qaysi?**
a) nazariy fanlar;
b) amaliy fanlar;
v) mutaxassislikka aloqador fanlar;
g) hammasi to'g'ri.

**33. Diapazon hajmi:**
a) kuyning tovush hajmi;
b) kvartsekstakkord;

v) septima;
g) oktava.

**34. Xalq qo‘shig‘i ijodkori kim?**

a) hofiz;
b) jamoa;
v) bastakor;
g) hammasi to‘g‘ri.

**35. “Olam yuzin obod qil” risolasi kimning asari asosida kompozitsiya qilingan?**

a) Alisher Navoiy;
b)Ogahiy;
v) Mashrab;
g) Xuvaydo.

**36. “Soz bilan suhbat” o‘quv qo‘llanmasi qaysi fanga tegishli?**

a) vokal ansambli;
b) estrada san’ati;
v) vokal;
g) xor sinfi.

## 6. Nazorat uchun savollar (J.N., O.N., Ya.N.)

1.Musiqiy asarning xor ijrosi uchun moslashtirish bilan estrada ijrosiga moslashtirishdagi o‘ziga xos xususiyatlar qanday?

2.Barmoq vaznidagi biror bir she’rni o‘qib bering.

3.Kompozitsiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima?

4.Vokal ansambllarining turlarini ayting?

5.Xalq qo‘shig‘ini qayta ishlashning qanday yo‘llari bor?

6.Yunus Rajabiyning “Kuygay” ashulasi o‘lchovini dirijyorlik setkasida ko‘rsatib bering?

7.Estrada vokal cholg‘u ansambliga misollar keltiring?

8.Ansambllarning turlarini ayting?

9.Yor-yorlar qaysi mahalliy uslubga xos?

10. Akademik yo‘nalish, milliy uslubdagi opera xonandalaridan kimlarni bilasiz?

## Mustaqil ish

1. Mutaxassislikka kirish fanining ahamiyati haqida ilmiy maqola.
2. Ijro turlari bo‘yicha referat.
3. Vokal va estrada san’atlari mushtarakligi haqida ma’ruza.
4. Mutaxassislikka kirish fani haqida yakuniy referat yozish.

## Mustaqil ish topshiriqlari va uning bajarilishi

1.Niyozali Ortiqmatovning “Jamoa ijrochiligi va uslubiyoti” (Respublika metodika va axborot markazi. T.: 2008) o’quv qo’llanmasidagi boblar asosida referat yozish.
2.Olga Anatolevna Vasil’chenkoning “ Хоровой класс” ( T.: 2008) o’quv qo’llanmasidan xor asarlarini moslashtirish bo’limini o’zlashtirish.
3.I. K. Nazarenkoning “Искусство пения ” . (Москва, Музыка nashriyoti 1968 544-579 betlar ) xrestomatiyasidan “Шаляпин об искусстве” bo‘limini konspektlashtirish.
4.Rahmatilla Nosirovning “Xurshid atongdur, oy-ano...” ( Toshkent islom universiteti, Toshkent- 2003. www.classic music.uz) o‘quv qo‘llanmasidan ashulalar janrini aniqlash.
5.Rahmatilla Nosirovning “Cholg’u ijrochiligi ” (Respublika metodika va axborot markazi Toshkent 2008. 5-10 betlar) o‘quv qo‘llanmasidan joy olgan Musiqiy cholg’ulari tarixi, turlari haqida yozma ish yozish.
6.Soibjon Begmatovning “Ҳофизлик санъати” ( Musiqa nashriyoti Toshkent-2007. ) o‘quv- uslubiy qo‘llanmasi xonandalik san’ati bo’limini tahliliy o’rganish.
7.Ozoda Nazarovaning “Эл севган санъаткорлар”(“O’ZBEKISTON” NMUY, Toshkent-2008) kitobidan o‘zbek vokal san’atining namoyondalari hayotiga doir bo’limlarni qiyosiy o’rganish.
8.Temur Mahmudov tuzgan “Ona yurtim”( Respublika metodika va axborot markazi T.: 2006) to’plamidan joy olgan asarlarni tahliliy o’rganish.
9.Orzu Azimovaning “The World of sounds of Karakalpaks”«Звуковой мир каракалпаков » (Swiss confederation Tashkent 2008) risolasi asosida Qoraqalpoq xalq baxshilari va sozlari mavzusida yozma ish tayyorlash.
10.Ahmad Jabborovning “Ўзбекистон бастакорлари ва мусиқашунослари” (Yangi asr avlodi T.: 2004.) ma’lumotnomasidan vocal va estrada san’ati namoyondalari ijodi haqida referat yozish.
11.Sobir Mirvaliev va Rixsiya Shokirovalarning “Ўзбек адиблари ” (Fan. T.: 2007) o’quv qo’llanmasidan qo’shiqchi shoirlar ijodi haqida mustaqil ish yozish.
12.Jahon Estrada yulduzi Sami Yusuf hayoti va ijodi haqida referat yozish.
13. Qo’shimcha adabiyot: Rustam Jabborovning “Iymon va e’tiqod kuychisi Sami Yusuf haqida” maqolasi (“Бекажон” 31 05 2007)
http://forum. ziyouz.com/

## 7. Tarqatma materiallar

# O'ynasin yor

B.Umidjonov aralash xor uchun qayta ishlagan

**Harakatchan, sho'x**




Jo - nim o'y - nang! Ay - nay - di - gan
Yo - rim o'y nang!
1.
yo - rim - ni jon! Yo - rim de - ma - sam - mi - kan?!
2.
Yo - rim de - ma - sam - mi - kan?! U yo - ni - ga tay - lang,
o'y - na - sin yor, Bu yo - ni - ga tay - lang o'y - na - sin yor,
U yo - ni - ga tay - lang, o'y - na - sin yor, bu yo - ni - ga tay - lang, o'y na - sin.

# Duxtari saman

(shiru shakar)



# Diyorim o'lkam

O'tkir Rashid so'zi
Hamid Raximov musiqasi

Sh.Yormatov yoshlar
xoriga moslashtirgan




Yo - ru di - yo - rim o'l - kam
O'l - kam, o'l kam
Men sen - ga xush - tor
Men sen - ga xush - tor
Bo - g'i ba - ho - rim o'l - kam


Men sen - ga xush - tor
Men sen - ga xush - tor
Bo - g'i ba - hor - rim o'l - kam
o'l kam
Kez - ma - sam bir - dam
Kez - ma - sam bir - dam


Bag' - ring cha- man zo - ring - ni
cha man zo- ring - ni
(A)
Bo' lur - man xu-mor
Bo' lur - man xu-mor
Qalb - da vi - qo rim O'l - kam
O'l kam


(A)
A


Bo' lur - man xu mor
Bo' lur - man xu mor
Qalb - da vi - qo - rim o'l - kam


Bo' lur - man xu-mor
bo' lur - man xu-mor
Qalb - da vi - qo - rim o'l - kam
Tamomlash uchun

Mehrim senga yor,
Yoru diyorim o‘lkam.
Men senga xushtor,
Boq‘u bahorim o‘lkam.

Kezmasam bir dam,
Baq‘ring chamanzoringni.
Bo‘lurman xumor,
Qalbda viqorim o‘lkam.

Meni sho‘x daryo,
Qilgan o‘shal sen o‘zing.
Tilimni burro
Qilgan o‘shal sen o‘zing.

Berib soz menga,
Qilib jo‘r ovozingni.
Bulbuli go‘yo
Qilgan o‘shal sen o‘zing.

## 8 Glossariy

Dirijyor – musiqa asarini ijro etuvchi jamoa rahbari

Vokal - ashula aytish san’ati

Estrada – ochiq sahna, minbar

Estrada yo‘nalishlari – pop, rok, jaz

Estrada ashulasi – mumtoz yo‘nalishdagi qo‘shiq

Milliy estrada - ma’lum bir millatga xos ijro uslubi

Alteratsiya - yetti pog‘onadagi tovushlar balandligini yarim yoki butun tonga o‘zgartirish

Opera - musiqali dramatik asar

Aktsent – biror tovush yoki akkordni qattiq chalish
Kadans - tugallanish

Avj – musiqa bayoni va rivojida eng yuqori nuqta

Detashe - qisqa rez.

Fraza - tarkib, kuyning nisbatan tugal bir bo‘lagi.

Transpozitsiya - ko‘chirish notaga tushirish.

Soz - sof, tiniq ovoz bilan kuylash.

Lad - parda, soz, ohang, bosqich.

Kuy - ohang, nag‘ma.

Forshlag - kichik notachalar bilan ko‘rsatilgan bir yoki birnecha tovush bo‘lib, buning uzunlik miqdori takt o‘lchoviga kirmaydi.

Fol’kmusiqa - xalq ijodiga tayangan uslub

Xor ashulasi - vokal musiqasini jamoa bo‘lib ijro etilishi

Xormeyster – xor dirijyori

Yakkaxonlik - eng og‘ir ashulalarni ham ayta olishga qodir xonanda.

## 9. Referat mavzulari

1. Niyozali Ortiqmatovning “Jamoa ijrochiligi va uslubiyoti” (Respublika metodika va axborot markazi. T.: 2008) o’quv qo’llanmasidagi boblar asosida referat yozish.
2. I. K. Nazarenkoning “Искусство пения ” . (Москва, Музыка nashriyoti 1968 544-579 betlar ) xrestomatiyasidan “Шаляпин об искусстве” bo‘limini referat yozish.
3. Rahmatilla Nosirovning “Cholg’u ijrochiligi ” (Respublika metodika va axborot markazi Toshkent 2008. 5-10 betlar) o‘quv qo‘llanmasidan joy olgan Musiqiy cholg’ulari tarixi, turlari haqida referat yozish.
4. Orzu Azimovaning “The World of sounds of Karakalpaks”«Звуковой мир каракалпаков » (Swiss confederation Tashkent 2008) risolasi asosida Qoraqalpoq xalq baxshilari va sozlari mavzusida referat yozish.
5. Ahmad Jabborovning “Ўзбекистон бастакорлари ва мусиқашунослари” (Yangi asr avlodi T.: 2004.) ma’lumotnomasidan vocal va estrada san’ati namoyondalari ijodi haqida referat yozish.

## 10. Adabiyotlar ro’yxati

### Darsliklar va o’quv qo’llanmalar ro‘yhati:

### a) Asosiy o’quv qo’llanmalar


1. Юнус Ражабий. «Ўзбек халқ мусиқаси». Ўз. Давлат б.а.нашриёти. Т.1959.
2. Юнус Ражабий. «Шашмақом». “Тошкент” бадиий адабиёт нашриёти. Т. 1966.
3. Соибжон Бегматов. "Хофизлик санъати". Мусиқа. Т.2007.
4. Ўлмас Расулов. “Анъанавий хонандалик ўқитиш методикаси”. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. Т.2006.

5. А.Жабборов. Ўзбекистон бастакорлари ва мусиқашунослари. *Маълумотнома.* Янги аср авлоди. Т. 2004.
6. Qodir Mirzayev. Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Darslik. Respublika metodika va axborot markazi. T.: 2008.
7. О.Матяқубов. “Фараби об основах музыки востока”. Фан. Т.1986.
8. М.Ҳасаний. “Устод ва шогирд”. G‘.G‘. номидаги адабиёт ва санъат н. Т.2000.
9. Ф.Мамадалиев. “Миллий мусиқа ижрочилиги масалалари”. Янги аср авлоди. Т.2001.
10. Фитрат. “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи”. Фан. Т.1993.
11. Матназар Худойназаров. Анъанавий ашулачилар ансамбли. Тошкент Ислом Университети. Т.2004.
12. Икром Иброҳимов. Саҳиҳ суворийлар. Тошкент Ислом Университети. Т.2004.
13. “Ватан кўнглимизда”. Қўшиқлар тўплами. Ўқитувчи. Т. 1996.
14. Вокальные ансамбли. М. 1967.
15. Вокальные ансамбли. М. 1981.
16. Песни народов мира о мире. М. 1978.
17. Ш.Рўзиев. Хаваскорлик хори билан ишлаш методикаси. Т.1993.
18. Ш.Рўзиев. Хоршунослик. Т.1989.
19. Д.Жумаева. Ўзбек хор мусиқаси тарихидан. Т.2002.
20. Н.Шарафиева. Хор синфи. Мусиқа. Т.2005.
21. Қўшиқлар хрестоматияси. Ўқитувчи. Т.1995.
22. А.Муҳамедов. Қўшиқлар. Ўз адабий нашр. Т.1961.
23. Олтун Содиқов. Эстрада ижросига мослаштириш. Т.2007.
24. Олтун Содиқов. Эстрада. Искусства. Аранжировка. Т.2008.
25. Oltun Sodiqov. Vokal ansambli. T.2007.
26. Jo‘ra Shukurov. Dirijorlik. Istiqlol. T.2007.

**b) Qo’shimcha o’quv qo’llanmalar**

27. Рифатилла Қосимов. Анъанавий танбур ижрочилиги. Чўлпон. 2002.
28. Абдулла Умаров. Танбур тароналари. Т.2004.
29. Раҳматуллоҳ Носир. “Соз билан суҳбат”. Фан. Т.2007. ***www.classicmusic.uz***
30. Раҳматуллоҳ Носир. “Халқ қўшиқлари композицияси”. Фан. Т.2006.
31. Раҳматуллоҳ Носир. “Хуршид атонгдур, ой-ано…”. Тошкент Ислом Университети. Т.2003. ***www.classicmusic.uz***
32. Раҳматуллоҳ Носир. “Олам юзин обод қил”. Янги аср авлоди. Т.2004. (кирилл ва лотин) ***www.classicmusic.uz***
33. Rahmatulloh Nosir. “Xurshid atongdur, oy-ano…”. Toshkent islom universiteti. *(Ikkinchi nashr)* T. 2003. ***www.classicmusic.uz***
34. Rahmatulla Nosirov. “Vokal” o‘quv qo‘llanma. Respublika metodika va axborot markazi. T. 2008. ***www.ixlos.uz***
35. Rahmatulla Nosirov. “Estrada san’ati” o‘quv qo‘llanma. Respublika metodika va axborot markazi. T. 2008.

36. Rahmatulla Nosirov. “Cholg‘u ijrochiligi” o‘quv qo‘llanma.
Respublika metodika va axborot markazi. T. 2008.

## 11.Ma’ruza matnlari

## 1. XOR SINFI VA XOR ASARLARINI MOSLASHTIRISH

Mutahassislikka kirish fanining "Xor sinfi" va "Xor asarlarini moslashtirish" kursi "Vokal jamoalari tashkilotchisi" bo‘limi talabalari uchun eng muhim fanlardan biridir. Bu fanning asosi vazifasi havaskorlik jamoalari repertuarini tuzishda asosiy omil bo‘lib hizmat qiladi. Fanning asosiy maqsadi talabalar olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llay bilish qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. Xor asarlarini moslashtirish deganda xor uchun yozilgan musiqiy asarlarni havaskorlik jamoalari tarkibidan kelib chiqib moslashtirish tushuniladi. Masalan, aralash xor uchun yozilgan asarni erkaklar yoki ayollar guruhiga moslashtirish. Huddi shuningdek bolalar va o‘smirlar xori uchun ham moslashtirish qonun qoyidalarini o‘rgatishdan iborat. Xor asarlarini moslashtirish fani quyidagi fanlar bilan bog‘liq:

1) Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti,
2) Vokal ansambli,
3) Partitura o‘qish,
4) Estrada ijrosiga moslashtirish,
5) Dirijorlik amaliyoti,
6) Vokal jamoalari bilan ishlash uslubiyoti.

Xor asarlarini moslashtirish fanining xususiyatlarini o‘rganishda o‘zbek va chet el bastakorlari yaratgan asarlarni taxlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda biz an’anaviy va akademik yo‘nalishda yaratilgan xor asarlani talabalarga tushuntirishda oddiydan murakkabga tomon borishimiz kerak.

Quyida biz Manas Leviyevning ating gullar qo‘shig‘ini xor uchun Jo‘ra Shukurov moslashtirgan variantidan parcha keltiramiz.

## AYTING GULLAR

(Yakkaxon va xotin-qizlar xori uchun)

*Turob To‘la* so‘zi — *Manas Leviyev* musiqasi

**Moderato** — Xor uchun *J.Shukurov* moslashtirgan




lar ay-ting gul-lar ay-ting gul-lar bu sev-gi-
pp
rit.
-la-rim bu mu-xab-ba-tim bu sez-gi-la-rim-
-ni ay-ting gul-lar ay-ting gul-
p
Coro:
mf
Solo:
Coro:
Solo:
lar jon bul-bul-lar jon bul-bul-lar yo-rim-ga
p
va-fo sa-do qa-tim-ni

Xor asarlarni moslashtirish fanini o‘qitishda avvalo O‘zteleradiokompaniya qoshida tashkil etilgan xor jamaosining repertuari katta ahamiyatga ega. Bu jamoa repertuaridan halq va mumtoz qo‘shiqlarning xor uchun moslashtirilgan variantlari yuksak saviyada o‘z ijrosini topgan. Botir Umidjonov, Jo‘ra Shukurov, Bahrilla Lutfullayev va boshqa ko‘plab dirijor va bastakorlar ijodini o‘rganish talabalarga kelajakda yuksak malakali rahbar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim standardlari talablariga binoan ilg‘or pedagogik tehnologiyalarni ta’lim jaraoniga tatbiq etish vazifasidan kelib chiqib dars jarayonida talabalarga xor uchun moslashtirilgan asarlarni elektron variantini ya’ni DVD yoki MP3 formatidagi audio va video tasmalarni namoyish qilish maqsadga muvofiq. Biz quyida Sulaymon Yudakovning "Alyor" vokal-xoreografik syuitasidan namuna keltiramiz. (Solist, aralash xor va fortopiano uchun klavir).



**CHALGIN**

O‘zbek xalq qo‘shig‘i Xotin-qizlar xori uchun *J.Shukurov* moslashtirgan

**Shoshilmay, nafis**




Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yhati


1) Q. Mirzayev. Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Respublika metodika va axborot markazi. T.: 2008.
2) Ш.Рўзиев. Хаваскорлик хори билан ишлаш методикаси. Т.1993.
3) Ш.Рўзиев. Хоршунослик. Т.1989.
4) Д.Жумаева. Ўзбек хор мусиқаси тарихидан. Т.2002.
5) Н.Шарафиева. Хор синфи. Мусиқа. Т.2005.
6) J. Shukurov. Dirijorlik. Istiqlol. T.2006.
7) С.Юдаков. Ўзбекистон. Алёр. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Т.1978.
8) Қўшиқлар хрестоматияси. Ўқитувчи. Т.1995.
9) А.Муҳамедов. Қўшиқлар. Ўз адабий нашр. Т.1961.
10)М.Левиев. Ўзбекистоним. Т.1970.

## 2. DIRIJORLIK AMALIYOTI

Mutaxassislik fanlarining asosiylaridan biri bo‘lmish "dirijorlik amaliyoti" fani talabalarga olgan nazariy bilimlarini amalda tatbiq qilish imkoniyatini beradi.

Bir guruh ijrochilarni bir-biriga qovushtirib, ularning bir xil kuylashlarini ta’minlab turuvchiga, ya’ni boshqaruvchiga - dirijor deyiladi. Dirijor ijrochilarni dirijorlik apparati orqali boshqaradi. Dirijorlik apparatiga: qo‘l, bosh (yuzi, ko‘zi), gavda (ko‘krak qafasi va tana) va oyoq qismlari kiradi. Dirijorlik apparatni o‘rganish va uni shakllantirishdan boshlanadi. Dirijorning erkin tarzdagi faoliyati, yengil ish olib borishi apparatning to‘g‘ri shakllanishiga bog‘liqdir. Dirijor fransuzcha - *Diriger* va lotincha *Durigo* so‘zlaridan olingan bo‘lib — «boshqaruvchi, yo‘lga soluvchi», musiqiy asar ijrosida qatnashuvchilarning barchasiga, ya’ni yakkaxon, xor, jo‘r bo‘luvchilar va boshqalarga rahbarlik qiluvchi san’atkordir. Professional dirijorlik sohasini shakllantirish XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, XIX asrning ikkinchi yarmigacha, ya’ni bir asr davomida bugungi ko‘lamiga kelgan. XVIII asrning ikkinchi yarmigacha sozandalarni yetakchi sozanda, xonandalarni esa yetakchi xonanda, va shunga o‘xshash turli xildagi boshqarish uslublari bo‘lgan. O‘zbek mumtoz musiqa san’atida ustoz san’atkorlardan biri yoki xonandaning o‘zi boshqarib borgan bo‘lsa, xalq folklorida bu vazifani asosan zarbli cholg‘uchilardan: doyrachi, qayroqchi va hokazolardan biri yetakchilik qilib turgan. Bulardan tashqari ko‘pchilik bo‘lib shovqinli uslubda ham, ya’ni qarsak chalib yoxud oyoq bilan yer tepib ham kuylashganlari, likobchani angishvona bilan shaqqillatib, barmoqlarni qarsillatish, qoshiqlarni bir-biriga urgan tarzda usulni ushlab turib kuylashlar ham bizga tarixdan malum.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmida, yurtirnizning professional ashula va raqs ashula va raqs ansambllarida asosan changchilar etakchilik qilishgan. Yunus Rajabiy nomidagi «Maqom»chilar ansamblida taniqli changchi-sozanda va bastakor Faxriddin Sodiqov, «Bahor" raqs ansamblida changchi-sozanda va bastakor Baxtiyor Aliycv «O‘zbekiston» ashula va raqs ansamblida changchi-sozanda va bastakor Tuyg‘un Otaboycv va boshqalar shular jumlasidandir. Bulardan farqli o‘laroq dirijyorning cholg‘usi - butun bir ijrochi jamoadir va ijro sifati uchun faqat u javobgardir. Dirijorlik ishoralarida quwat,sur’at, rnirvofiqlashtirish, cgiluvchanlik va quloch yozish kabi asosiy xususiyatlar mavjud. Dirijor boshqaruvchi bo‘hshidan tashqari,talqin etuvchi hamdir. Biron-bir asarni yakka tarzda talqin eta olish, ijrochilarni birlashtirib jamoaga aylantira olishga erishishlar dirijyordan mustahkam iroda, g‘ayrat va shijoat, matonat va mahorat, hamda ijodiy tafakkur talab etadi.

Dirijorning oyoqlari egiluvchanlikka xos, mustahkam o‘rnashib olishi, ya’ni bir oyoqni bo‘shashtirib, boshqa bir oyoqqa tayangan holda emas,balki ikkala oyoqqa ham baravariga tayangan tarzda turishi maqsadga muvofiqdir . Buning uchun dirijorning oyoqlari oralig‘i 15-20 sm. masofada bo‘lib, chap yoxud o‘ng oyoqi nisbatan oldinroqda joylashgan bo‘lishi kerak, chunki dirijyor asar davomida goho chapga, goho esa o‘ng tomonlarga burilishi, asar bilan bog‘liq

bo‘lgan zarurat tufayli sal oldinroqqa intilishi, yoki bir oz orqaroqqa tisarilish holatlari paydo bo‘lishi mumkin. Ayni shularni inobatga olib, muvozanatni ushlab tura olish uchun dirijyorning butun tanasi ikkala oyoqda ham barovar mustahkam o‘rnashib olishi shart. Aks holda uning oyoqlari noturg‘unlikka duchor bo‘ladi va muvozanatni saqlay olmasligi ehtimoldan xoli emas. Dirijorlik paytida - ikkilamchi dirijoliklar(ishoralar)ga, ya’ni qo‘l zarbli birinchi hissaga tushayotganda oyoqlarning bukilishi sodir bo‘lishlariga, oyoq bilan yer depsinib ijroni boshqarishlarga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Dirijorlik paytida talabaning boshi tanasiga xos to‘g‘ri, ochiq va erkin turgani afzal. U ish jarayonida barcha ijrochilarni eshitib borishidan tashqari, ularni ko‘rib borishi hamda ularni nazorat qila olishi, o‘z navbatida esa ijrochilar ham dirijorning yuz-ko‘zini aniq va ravshan ko‘rib-turib ijro eta olish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari shart. Ba’zan tajribasi yetarli bo‘lmagan mutaxassis (yosh dirijor)lar, o‘zlari sezmagan holda, qo‘l harakatini doimiy bosh harakati bilan baravariga olib borish kamchilikiga yo‘l qo‘yadilar. Bunday dirijyorlarning qo‘li yuqoriga ko‘tarilsa - boshi pastga, qo‘li pastga harakat qilganda esa boshi yuqori tomon harakat qilib turadi.Bunga aslo yo‘l qo‘ymaslik kerak. Qo‘llar va boshning har biri alohida o‘z vazifasini bajarib borishini doimiy ravishda nazorat qilib borish awalo o‘qituvchi zimmasida bo‘lsa, kcyinchalik talabaning o‘z zimmasida bo‘lishi kerak. Aks holda bosh va qo‘llarninng harakatlari bir-biriga xalaqit berib, dirijorning harakatchanligi, ifodaliligi va nafisligi yo‘qolib boradi, hamda ijrochilarni chalkashtirib, adashtirishga olib keladi.

Biz dirijorlik amaliyoti fanini o‘rgatishda O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi Jo‘ra Shukurovning “Dirijorlik” fanidan o‘quv qo‘llanmasida keltirilgan tahlillardan keng foydalanishni tavsiya qilamiz.

## Ikki choraklik asarlarga annotatsiya

**1 . Archa.** Asarning osoyishta sur’ati ikki hissali dirijorlik sxemasini kuzatib borishga imkon yaratadi. Dirijorlik ishorasi engil LEGATO ni aks ettirishi lozim. Asar har bir qo‘lni mustaqil ishlatish malakasini cgallash uchun foydalidir.

**2. Baland shigib.** Garchi asar erkaklar xori uchun bitilgan bo‘lsada, ijrosi nafis LEGATO uslubidagi dirijorlik harakatini talab etadi. Bunda ikki hissali o‘lchov sxemasi muayyan aniqlikda yaqqol ko‘rinadi. Osoyishta va mayin kuy dirijorlikning boshlang‘ich malakalarini o‘zlashtirib olishni engillashtiradi. Musiqiy jumlalarni oxirida uzish va keyiniga jumla boshlanishini birlamchi ishora orqali bajargan ma’quldir.

**3. Onajonlar bayrami.** Asarning quvnoq xarakteri talaba qo‘l harakatining ishoralarida o‘z ifodasini topmog‘i, hamda dirijorlik ishoralari qo‘shiqning xushchaqchaq xarakterini ochib berishlarga alohida ahamiyat berishi zarur. Bu asar orqali xor ovozlarini ketma-ket kelayotgan boshlanish damlarmi o‘z vaqtida ko‘rsatish talaba — dirijorning asosiy vazifasidir. Asar oxiridagi ikkinchi hissada tovushni aniq uzishga erishish lozim.

**4. Yallama yorim-yallola.** Asarning quvnoq va xushchaqchaq

kayfiyati dirijorlik ishoralarida o‘z ifodasini topishi lozim. Musiqiy jumlaning boshlanishi oldidan birinchi hissalarni dadil va ishonchli ko‘rsatish, ayniqsa ALT guruhining zarbli birinchi hissada, SOPRANO guruhini shu hissaning ikkinchi yarmidan boshlamshlarini ko‘rsatishlar, oxirida esa uzishlarning aniq va ravshan bajarishlar dirijorlik texnikasining boshlang‘ich jarayonlarini mustahkamlaydL Bu asarda talaba ikki hissali o‘lchov sxemasini silliqlab olish imkoniga ega bo‘ladi.

**5. Go‘zal yor.** Asarning sho‘x va quvnoqlikka xos xarakterini yengil, tarang ishora bilan tasvir etishga erishish lozim. Talaba dirijorlik qilish jarayonida BAS guruhning yakka kuylashdan keyingi Tenorlarni birinchi hissaga aniq tushib boshlashlari, Bas guruhida ijro etiladigan turli xildagi sinkopalarni ishonch bilan ko‘rsatib borishlar kabi muhim ko‘nikmalarni bajaradi.

**6. Hay yor, yor.** Asarning zavq bilan sug‘orilgan o‘ynoqi xarakteri dirijorlikning yorqin, xushchaqchaq, irodali ijrosini talab etib, g‘o‘l harakatining engil ishorasi bilan ta’kidlanishi lozim. Har musiqiy jumlaning boshlanishini alohida ko‘rsatib, uzun pardalarni ikkinchi hissada aniq uzish kerak. Dinamikaning rang-barangligi xor ovozlarining birin-ketin kuylashlarini ko‘rsatib borish avvalgi egallangan malakalarni mustahkamlaydi.

## Uch choraklik asarlarga annotatsiya

**1. Chalgin.** Musiqiy jumla ikki taktlik bo‘lib, oxirida yarimtalik notalarni ovozbilan cho‘zib turish uchun ikkala qo‘l baravariga to‘xtaydi. Ikkinchi jumlaga o‘tganda yana ikkala qo‘l baravariga o‘z harakatini davom ettiradi. Oxiridagi fermato belgisi akkordni asar sufati va xarakteriga xos, ma’lum muddatga cho‘zib turishni ta’minlaydi. Oxirgi cho‘zilib tuigan akkordni, ijroni tugatish maqsadida qo‘llar yumshoq uzishni ta’minlash lozim. Talaba mazkur asar orqali fermato belgisi bilan tanishishga ham muyassar bo‘ladi.

**2. Farg‘onacha yor-yor.** Tabiatdan xotin-qizlar xarakteriga xos bo‘lgan kuychanlik, nafislik, yumshoqlik va ravoniiklar imkoni boricha dirijyormng qo‘l harakatlarida **LEGATO** uslubini talab etadi. Soprano guruhidan keyin Alt guruhi kuylay boshlashini aniq ko‘rsatishga e’tibor berish lozim. Ovoz cho‘zilib turiladigan hissalarda qo‘lni to‘xtatib — ushlab turib, davomida kechikmasdan qo‘lni harakatlantira olishlarga erishmoq kerak.

3. **Nazlana.** Asarning bemalol va mayin xarakteridagi ijrosi talabaga birinchi hissani yengilgina ta’kidlab, ikkinchi hissalarning ikki xil to‘xtalishi, ya’ni farqlay olish, dirijyorlik harakatida nuqtali choraktalikdan keyin ikkala qo‘l ham baravariga yumshoq silkinganday bo‘lib, sakkiztaliklarni ko‘rsatishlar ustida ishlash mumkin.

**4. Vokaliz.** Asarning nafis va mungli ohangi mayin va tarang dirijyorlik ishoralarini talab etadi. Talaba bu asar orqali to‘rt qatorlik jo‘rsiz xor partiturasi bilan tanishishga muyassar bo‘ladi. Asar to‘liq to‘rt marotaba ijro etilib, birinchi marotabasi ichki nido singari yumuq ovoz bilan *pp* va *p* tusida,

ikkinchi marotabasi nisbatan yaqinlashganday yumuq ovoz bilan *mf* va *f* tusida, uchinchisi «O» harfi shaklidagi *f* va *ff* tusida va nihoyat to‘rtinchisi yana ichki nido singari yumuq ovozdagi *p* va *pp* tusida ijro etiladi. Dirijorlik ishoralari shu dinamik tuslarga mos aniq va ravshan bo‘lishi lozim. Asar *fonar* belgisida tugaydi.

5. **Toshkentim.** Asar xarakteri mayin dirijyorlik ishorasini talab qiladi. Asarning shoshilmay ijro etiluvchi vals usulida birinchi hissani nisbatan ta’kidlabroq, ikkinchi hissalarda esa ikkala qo‘l bilan baravariga to‘xtash kabi dirijyorlik ko‘nikmalari ustida ishlash mumkin.

**6. Buxoro qo‘shig‘i.** Bu dirijyorlikda polifonik elementlarning boshlang‘ich etapi ustida ishlash uchun murakkab bo‘lmagan misollar tariqasidagi asardir. Har bir ovozni boshlash va uzish paytlarini aniq varavshan ko‘rsatish lozim. Asarning boshlanish sur’ati LEGATO harakati ustida ishlashga imkon bersa, o‘rta qismida vatanparvarlik ruhi, ya’ni vatanga bo‘lgan mehr tuyg‘usi. his-hayajonli xarakterlarini yechib berish ustida ishlash mumkin bo‘ladi.

## To‘rt choraklik asarlarga annotatsiya

**1. Yoshlar ramziy qo‘shig‘i.** Asar madhiya xarakterida bitilgan bo‘lib, talaba dirijorlik texnikasining ulug‘vorligi, tantanavorligi, hamda ruhining ko‘tarinki va salmoqli bo‘lishligiga c’tiborni qaratishi lozim. Ikkinchi va to‘rtinchi taktga o‘xshash jumlalarda, to‘rtinchi hissasida uzish, yakkaxon alohida kuylab bo‘lgach xorning ijrosini ko‘rsatish, «Yurt obod», «Yurt obod» jumlalarida avvalo xorning xotin-qizlar guruhi, kcyin esa yigitlar guruhi kuylashlarini ko‘rsatishlar talabaning texnik o‘sishiga imkon beradi. Asar o‘smirlar xor jamoalari dasturidan munosib o‘rin egaliashi mumkin.

**2. Qabog‘ing yaxshi.** Asar chuqur LEGATO uslubidagi dirijorlik imo-ishoralari ustida ishlash nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Nafas olishlar birlamchi (kombinasiyalashgan) qo‘l harakati orqali amalga oshiriladi.

3. **Tomog‘imga tekkizmay.** Asar beg‘ubor bolalar fe’l-atvoriga xos sho‘x-o‘ynoqi va samimiy ruhda bitilganligi ovozlar (partiyalar)ni mustaqntarzda yo‘nalishitalabadan ruhiy yengillik va shijoat talab etadi. Takt chizig‘i ustidagi fermatodan oldingi «hey» bo‘g‘inini «qiyqiriq» xarakterida uzib tinish lozim. Mana shu tinish sekinlashtirib ijro etishni anglatuvchi «MENO MOOSSO»ga tayyorgarlik ko‘rish hamdir.

## Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yhati


1) Q. Mirzayev. Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Darslik. Respublika metodika va axborot markazi. T.: 2008.
2) J.Shukurov. Dirijorlik. Istiqlol, T.2006.
3) Ш.Рўзиев. Хаваскорлик хори билан ишлаш методикаси. Т.1993.
4) Ш.Рўзиев. Хоршунослик. Т.1989.
5) Д.Жумаева. Ўзбек хор мусиқаси тарихидан. Т.2002.

## 3. VOKAL

Mutahassislikka kirish fanining asosiy kurslaridan biri vokal ijrochiligi fanidir. Ushbu fan vokal ansambli, xor partiturasini o‘qish, estrada ijrosiga moslashtirish, estrada san’ati, dirijorlik va xor solfedjiyosi fanlari bilan bog‘liq. Vokal fanining asosiy maqsadi bo‘lajak vokal jamolariga raxbarning kasbiy mahoratini oshirish, nafas olish, diksiya, so‘z tanlash, qo‘shiqni yuksak saviyada ijro qilish malakasini hosil qilishni iborat. Fanning asosiy vazifasi yosh mutahassislarga kelajakda havaskorlar bilan ishlash yollarini o‘rgatish, vokal ijrochiligi yutuqlarini amalda tatbiq qilish kabi ishlardan iborat. Ushbu fanni o‘qitishda ikkita asosiy yo‘nalish ya’ni **akademik** va **an’anaviy** ijrochiligi birgalikda qo‘shib olib borishdan iborat.

Fitrat o‘zining "O‘zbek klasik musiqasi va uning tarixi" kitobida yozishicha "Bizning adabiyotimizda bo‘lgani kabi musiqamizda ham ikki oqim bordir. Adabiyotimizda aruz vaznida she’r yozmoq bilan aruzsiz, yani o‘zimizning barmoq vaznida she’r yozmoq yo‘li bor. Aruz vazni eron-arab ta’siri ostida ilm olgan shoirlarimiz orasida ishlatilsa, barmoq vazni el shoyirlari orasida ishlatilgandir.

Musiqa ha huddi shunga o‘xshab yuradir. Musiqamizda usul vaznida bog‘langan kuylar bo‘lgani kabi, usulsiz bog‘langan kuylar ham bor. Usulsiz kuylar el tomonidan ya’ni el chog‘uchilari , ashulachilari tomonidan yaratilg‘andir. Ularning usulsizlig‘i barmoq vaznidagi she’rlarning "aruzsizligi" kabidir."

Biz yuqorida vokal ijrochiligini akademik va an’anaviy yo‘nalishlarga bo‘lgan edir. Akademik yonalishda qo‘shiq o‘rganishda Ivan Karpovich Nazarenkoning "Искусство пения" kitobi va boshqa o‘quv qo‘llanmalar asosiy manbaa vazifasini o‘tasa, an’anaviy qo‘shiqchilikni o‘rganishda esa Soyibjon Begmatovning "Xofizlik san’ati" o‘quv qo‘llanmasi qo‘l keladi.

Vokal san’atida ovozning tusi, jarangdorligi, kuchi, ko‘lami, shiradorligi, uni ishlatish imkonlari va tabiatan xilma-xil bo‘ladi. Akademik xonandalikda ovozlar aniq nomlarga ega. O‘zbek milliy ashulachiligida esa mavhumligicha qolmoqda. Oqibatda an’anaviy yonalishdagi ustoz-shogirtlik maktablarining yutuqlari kishilarning xotirasidan o‘chib bormoqda. Fattoxhon Mamadaliyev " Milliy musiqa ijrochiligi masalalari" risolasida ovozlarni bir necha toifalarga ajratadi:

1) Norovoz,
2) Tik ovoz (jarangdor ovoz),
3) Jarangdor kuvrak ovoz,
4) Kuyuk tik ovoz (jarangsiz ovoz),
5) Bo‘zak ovoz (moda ovoz),
6) Pang ovoz,
7) Ishkami ovoz.

O‘zbekiston xalq artisti O‘lmas Rasulov o‘zining "Анъанавий хонандалик ўқитиш методикаси" o‘quv qo‘llanmasida ovozlarning turlarini quyidagicha ta’riflayda:

1) **Tomog‘** ovoz **(gulligi).** Bu ovoz boylamlarini zo‘riqtirish, halqumni siqish, tilchakni yuqori tanglayga qattiq yopishtirish oqibatida hosil qilinadi. O‘z navbatida nafas halqumdan siqib chiqariladi. Nafas xarakatida rovonlik erkinlik yoqoladi.

2) **Ko‘krak ovoz (sinagi).** Kuylash jarayonida ko‘krak qafasi mushaklariga ko‘p kuch beriladi. Xonandada ko‘krak qafasining doimiy ko‘tarilib kuzatiladi. Bu esa ovozni tez toliqtiradi. Bunday ijroda diafragma kam xarakat qiladi.

3) **Qorin ovoz (shikami yoki ishkami).** Ustozlarning nafasni o‘pka yordamida qovirg‘a bilan olish kerak deganlarini ko‘p eshitganmiz. Bu jarayonda op’kaning pastki qismi xavo bilan to‘ldiriladi. Oqibatda pastki qovirg‘alar kengayib diafragmaning faol va to‘liq xarakatida imkon yaratiladi. Qorin bo‘shlig‘i mushaklari xarakatga keladi. Ovozning bunday sadolantirilishi uning tabii xususiyatlarini yorqinroq namoyon etadi. Bolalarda qorin ovozi deyarli chramaydi. Talabada qorin ovozining shakllanishi to‘g‘ri va ravon nafasni ta’minlash bilan birga kuylashta juda ko‘p qulayliklar yaratadi.

**Honandaning nafas olgandan so‘nggi xolati**





**Xiqildoqning tinch xolatdagi ko‘rinishi**

Xiqildoqqa kirish va uning boylam usti bo‘shlig‘i (ochiq holat).

**1.** Soxta ovoz boylamlari.

**2.** Mo‘rgan qorinchasi (ochiq xolati).

**3.** Xaqiyqiy ovoz boylami (bo‘shashgan xolat).




San'atshunoslik fanlari doktori, professor Otanazar Matyoqubov o'zining "Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish" o'quv qo'llanmasida shunday deydi: "An'anaviy o'zbek musiqasi asrlar davomida folklor va professional yo'nalishda rivojlanib kelgan bo'lib hozirda ham ustoz-shogrt an'analari davom etmoqda". Biz yuqorida ushbu kitobdan asarning tuzilishi xaqidagi sxemani keltirdik.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yhati

***Akademik yo‘nalish bo‘yicha:***

1) И.К.Назарченко. Искусство пения. -М.: Музыка, 1968.
2) К.Васенина. “Правильное произношение слова, как важнейший фактор в пении” методическое пособие. М; 1962.
3) Л.Б.Дмитриев. “Основы вокальной методики”. М.1963.
4) М.Л.Львов. “Из истории вокального искусство”. М.1967.
5) Бризгалов. “Школа вокального пения”. Т.1990.
6) Q. Mirzayev. Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Respublika metodika va axborot markazi. T.: 2008.

***An’anaviy yo‘nalish bo‘yicha:***

1) Юнус Ражабий. “Ўзбек халқ мусиқаси”. Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёт нашриёти. Т.1959.
2) Юнус Ражабий. “Шашмақом”. Тошкент бадиий адабиёт нашриёти. Т.1966.
3) Соибжон Бегматов. “Хофизлик санъати”. Мусиқа. Т.2007.
4) Ўлмас Расулов. “Анъанавий хонандалик ўқитиш методикаси”. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. Т.2006.
5) Ё.Исҳоқов. “Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти”. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Т.2002.
6) О.Матёқубов. “Фараби об основах музыки Востока”. Фан. Т.1986.
7) М.Ҳасаний. “Устод ва шогирд”. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Т.2000.
8) Ф.Мамадалиев. “Миллий мусиқа ижрочилиги масалалари”. Янги аср авлоди. Т.2001.
9) Ризоуддин ибн Фахриддин. “Жавомеъул калим - 1”. Мовароуннахр. Т.2004.
10) Фитрат. “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи”. Фан. Т.1993.
11) Раҳматуллоҳ Носир. “Соз билан суҳбат”. Фан. Т.2007. www.classicmusic.uz , www.ixlos.uz
12) Раҳматуллоҳ Носир. “Халқ қўшиқлари композицияси”. Фан. Т.2006.
13) Rahmatulloh Nosir. “Xurshid atongdur, oy-ano…”. Toshkent Islom Universiteti. T.2003. ***www.classicmusic.uz***
14) Rahmatulloh Nosir. “Olam yuzin obod qil”. Yangi asr avlodi. T.2004. ***www.classicmusic.uz***
15) Rahmatulla Nosirov. “Vokal” o‘quv qo‘llanma. Respublika metodika va axborot markazi. T. 2008.

## 4. Aranjirovka

Aranjirovka fani mumtoz, halq va bastakorlik ijodiyoti asarlarini estrada ijrosiga moslashtirishni o‘rgatadi. Fanning asosiy maqsadi musiqiy me’rosimizni yoshlarga va kelajak avlodga etkazishda estrada san’atining imkoniyatlarini ko‘rsatishdan iborat. Estrada ijrosiga moslashtirish fani boshqa mutahassislik fanlari bilan homahang bo‘lib, bo‘limning asosiy fanlaridan hisoblanadi. Ushbu fanni o‘qitish jarayonida halq qo‘shiqlarini, bastakorlik asarlarini estrada ijrosiga moslashtirish usullari o‘rgatiladi. Shu bilan birga zamonaviy estrada muommolari haqida ham baxs yuritiladi.

### Bir turdagi estrada ansambllarni aralash ansamblga moslashtirish

Quyida har xil tarkibdagi bir turdagi ansambl turlarini aralash ansamblga moslashtirish holatlarini ko‘rib chiqamiz.

Ikki ovozli bir turdagi ansamblga qo‘shimcha yana ikkita ovoz kiritilsa, aralash ansambl sadosi kelib chiqadi. Moslashtirishning bu turi juda oddiy usul hisoblanib, ayollarning I ovoziga erkaklarning I ovozi, ayollarning II ovoziga erkaklarning II ovozi qo‘shiladi. Asarni moslashtirish jarayonida ijrochilarga qulay bo‘lishi uchun uni boshqa balandlikka transport qilish mumkin.

Uch ovozli bir turdagi ansamblni aralash ansamblga moslashtirishda qo‘shimcha yana uchta ovoz kiritiladi.

Zich joylashgan bir turdagi ansambl partiturasining diapazoni oktavadan oshmasligi lozim. Bu uch marta ko‘paytirilgan ovozlarni moslashtirishda muhim shartlardan hisoblanadi.

Ikki marta ko‘paytirilgan ovozni aralash ansamblga moslashtirish uch ovozli bir turdagi ansamblni aralash ansamblga moslashtirishning juda keng tarqalgan va mukammal usuli hisoblanadi.

Moslashtirishning ikki turini ta’kidlab o‘tmoqchimiz:

Birinchi yuqori ovoz I ayollar va erkaklar partiyasiga, o‘rta ovoz II ayollar va II. 1 erkaklar partiyasiga, pastki ovoz II.2 erkaklar partiyalari zimmasiga yuklatiladi; Ikkinchi yuqori ovoz I ayollar va I.1 erkaklar partiyasiga, o‘rta ovoz II ayollar va I.2 erkaklar partiyasiga, pastki ovoz II erkaklar partiyasiga uzatiladi.

Uch ovozli bir turdagi ansamblni aralash ansamblga moslashtirishning eng qulay yo‘llaridan biri partiyalarni ikki marta kuchaytirishdir. Buning ikkita ko‘rinishini misol qilib keltiramiz:

Birinchi yuqori ovoz I ayollar va erkaklar partiyalarida oktavali ko‘rinishda ikkilanadi, o‘rta ovoz II ayollar partiyasida, pastki ovoz esa II erkaklar ovozida beriladi.

Ikkinchi yuqori ovoz I ayollar partiyasida, o‘rta ovoz I erkaklar partiyasida, pastki ovoz esa II ayollar va erkaklar partiyalarida oktavali ikkilanadi.

Bunday aranjirovkani amalga oshirish ishlarini juda qobiliyatli talabalarga topshirish mumkin.

Ayollar ansamblini keng joylashuvdagi aralash ansamblga moslashtirishda asar ohangi o‘zgarmaydi. Aralash ansamblda ovozlar I ayollar - I erkaklar (oktava past), II ayollar - II erkaklar (oktava past) ko‘rinishidagi tartibdajoylashtiriladi.

Erkaklar ansamblini keng joylashuvdagi aralash ansamblga moslashtirishda asar ohangini o‘zgartirmasa ham bo‘ladi. Lekin erkaklar ansamblida yuqori ovoz I erkaklar partiyasi orqali ifodalansa, unda eng yuqori ohanglarni kerakli parda oralig‘iga moslashtirish kerak bo‘ladi. Ya’ni, I.1 erkaklar partiyasi aralash ansamblda I ayollar partiyasi orqali beriladi. Faqat bu holda balandlik darajasi - ovoz uchun qulay bo‘lishi lozim.

## Aralash ansambllarni bir turdagi ansambllarga moslashtirish

To‘rt ovozli aralash ansamblni to‘rt ovozli bir turdagi ansamblga moslashtirishda ansambl fakturasini to‘liq saqlab qolish mumkin. Bunda asar tanlashga alohida e’tibor bermoq darkor. Chunki aralash ansamblning pastki registrlari ayollar ansambli diapazoniga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Ansambl ovozlarini transportlash moslashtirish kabi amalga oshiriladi. To‘rt ovozli aralash ansamblni to‘rt ovozli bir turdagi ansamblga moslashtirish lozim. Transportlash hollarida fakturani saqlab qolish akkord turlarini, akkordlar joylashuvini, ovoz yo‘nalishini saqlash demakdir.

Akkordlar joylashuvini o‘zgartirish aralash ansamblni moslashtirish usulining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Ikkita o‘rta ovozni joylashtirishda I erkaklar ovozi o‘zining tabiiy diapazonidan nisbatan yuqori yoki past bo‘lishi mumkin. Agar bu birinchi holatda kuyni zaruratsiz o‘zgartirishga olib kelsa, ikkinchi vaziyatda akkord turining o‘zgarishiga olib keladi. Bu holatda I erkaklar ovozi partituradan chetlashtiriladi.

Ko‘p ovozli aralash ansamblni to‘rt ovozli bir turdagi ansamblga moslashtirishning murakkabligi, o‘rta ovozlarda ohang tuzilishi va yo‘nalishini saqlab qolishga intilish, aralash ansamblning ko‘p ovozli partiturasida asosiy ovozni tanlay bilish qayta ishlash jarayonida asarning asl ko‘rinishini saqlab qolishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

## Aralash ansambllarni boshqa tarkibdagi aralash ansambllarga moslashtirish

Vokal ansambli amaliyotida aralash ansambllarning turli ko‘rinishlari qo‘llaniladi. Bular orasida murakkab va nisbatan soddalashtirilgan holatlar ham kuzatiladi. Quyida aralash ansambllarni kuylash uchun qulay bo‘lgan turlarini ko‘rib chiqamiz.

Ko‘p ovozli asarlarni ansambl jamoalari ijrosiga moslashtirish holatlari asosan ijro tayyorgarligi o‘rtacha bo‘lgan va ijrochilar soni ko‘p bo‘lgan jamoalar uchun qo‘llaniladi.

Ohangdosh partiyalarni oktavali ikkilantirish jarayonida I.1 ayollar va erkaklar ovozlaridan erkaklar ovozi, I.2 ayollar va erkaklar ovozlaridan ayollar partiyasi, II ayollar va II. 1 erkaklar ovozlaridan erkaklar partiyasi kuylashdan chetlashtiriladi.

Ohangdosh bo‘lmagan partiyalarni oktavali ikkilantirishda odatda pastki ovozlar olib tashlanadi (II.2 erkaklar ovozi ijro tessiturasi uchun qulay bo‘lgan hollarda qoldiriladi).

Bay on etish uslubini soddalashtirish yo‘llaridan yana biri bu ansambl partiyalarini bir ovozdan ikkinchi bir ovozga o‘tkazishdir. Masalan, I.2 ayollar ovozini II partiyaga, pastgi ayollar partiyasini I erkaklar partiyasiga va h.z.larga o‘tkazish mumkin.

Transportlangan ansambl partiturasini moslashtirish hollarida to‘rt ovozli aralash ansambl imkoniyatlarining tessiturasini inobatga olish lozim.

Havaskor jamoalardan aralash ansamblni tashkil qilishda ayollar va erkaklar ovozlari son jihatdan teng kelmaydi. Bu hol yoshlar, ya’ni maktab jamoalari, yuqori sinf o‘quvchilaridan tashkil qilingan ansamblda ham uchraydi. O‘g‘il bolalardan tashkil qilingan ansambl qizlar ansambliga nisbatan son jihatidan farq qilmaydi. Lekin bolalardagi mutasiya davri ularning haqiqiy erkaklar ovozlarida kuylashlariga xalaqit beradi. Bu holda odatda erkaklar ovozi bitta partiyaga birlashtiriladi. Ayollar ansambli esa odatdagicha I va II ovozlarga bo‘linadi. Shu tariqa uch ovozli aralash ansambl tashkil topadi.

Aralash erkaklar partiyasini tuzishda I va II ovozlarning diapazonini inobatga olgan holda o‘rtacha balandliklarni qo‘llash lozim. Erkaklar partiyasining mana shunday cheklangan diapazonga amal qilgan holda uch ovozli aralash ansamblni aranjirovka qilishda ovozlarning har qanday bo‘linishidan saqlanish lozim. Bunday guruhlar uchun murakkab bo‘lmagan asarlarni aranjirovka qilish mumkin.

To‘rt ovozli aralash ansambl partiyasini uch ovozli ansamblga moslashtirishda yuqori ovoz o‘zgarishsiz I ayollar partiyasi orqali ifodalanadi. Uch ovozli aralash ansamblda II ayollar partiyasini "qorishma" ovozga topshirish lozim. Bunday "qorishma" ovozni tashkil qilish jarayoni har doim ham yaxshi kechmaydi. I erkaklar partiyasidan qisman foydalanilganda "qorishma" ovoz tessiturasining pasayish xavfi tug‘ilishi mumkin. Bu salbiy natijani beradi. Shuning uchun "qorishma" ovozni diqqat bilan tanlash lozim.

Uch ovozli aralash ansamblga moslashtirish san’ati katta tajribani va qobiliyatni talab qiladi.

Shunga qaramay, aranjirovka san’atning muhim qismlaridan hisoblanadi.

## Adabiyotlar ro‘yxati


1) Oltun Sodiqov. Estrada ijrosiga moslashtirish. T.2007.
2) Oltun Sodiqov. Vokal ansambli. T.2007.
3) Гаранян Г. Аранжировка для эстрадных инструментальных и вокально – инструментальных ансамблей. М, Музыка, 1986.
4) Киянов Б., Воскресенский С. Руководство для эстрадных аркестров и вокальных ансамблей. М. –Л., Музыка, 1966.
5) Руководство вокальных ансамблей и его профессии. Методическая разработка. Сост. Васильев В. Л., 1986.
6) Руководство вокальных ансамблей и организация воспитательного и творчесеого процесса. Сост. Чабанный В. А., 1987.
7) Практическое руководство по аранжировке. И. Глицвенко. Изд Музыка, 1968 г.
8) Rahmatulla Nosirov. “Vokal” o‘quv qo‘llanma. Respublika metodika va axborot markazi. T. 2008.
9) Rahmatulla Nosirov. “Estrada san’ati” o‘quv qo‘llanma. Respublika metodika va axborot markazi. T. 2008.


## Qo‘shimcha nota adabiyotlar

M. Otajonov. «To‘y muborak»

H. Rahimov. «Oyxon va Oston dueti» M. Boboyev so‘zi

H. Rahimov. «O sport» N. Narzullayev so‘zi

M. Boboyev. «Ot mindim» Xalq so‘zi

N. Norxo‘jayev. «Muhabbat» U. Qo‘chqor she’ri

R. Abdullayev. «O‘zbek yoshlari» A. Suyun so‘zi

H. Rahimov. «Shifokormiz» N. Narzullayev she’ri

R. Abdullayev. «Toshkent madhiyasi» A. Oripov she’ri

F. Alimov. «Yusuf va Zulayho». «Muhabbat nidosi» kinofilmidan. R. Bobojon she’ri

# 6. PARTIRURA O‘QISH

Partirura o‘qish fani talabalarga ko‘p ovozli asarlarni tez va aniq o‘qishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Bu kursni o‘qitishda Oltun Sodiqovning «Xor partiturasini o‘qish» o‘quv qo‘llanmasi asosiy manba bo‘lib hizmat qiladi.

Oltun Sodiqovning «Xor partiturasini o‘qish» o‘quv qo‘llanmasi asosan o‘zbek kompozitorlari asarlaridan tuzilgan bo‘lib, Respublikamizning oliy musiqa o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallangan. Qo‘llanmaning musiqiy misollari fortepianoda ijro etishning bosqichma-bosqich o‘zlashtirilishiga imkon yaratadi.

Qo‘llanmadagi mavzular mutaxassis o‘qituvchilar rahbarligi ostida o‘tiladi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchi va talabalar qo‘llanmadan mustaqil ravishda foydalanishlari ham mumkin. O‘quv qo‘llanmadan bir qator uslubiy ko‘rsatmalar va ijrochilarga maslahatlar ham o‘rin olgan.

O‘quv qo‘llanma turli murakkablikdagi partitura yozuvi va badiiy jihatdan barkamol xor asarlaridan tashkil topgan bo‘lib, ular turli mazmun va shaklga, musiqiy tiliga, bayon qilinish uslubiga ega.

Qo‘llanmadagi qo‘shiq va xorlar badiiy-havaskorlik to‘garaklarida, madaniyat saroylarida va boshqa tashkilotlarda konsert dasturi sifatida ijro etilishi mumkin.

O‘quv qo‘llanma oddiy asarlar bilan boshlanib, garmonik, ba’zan esa polifonik ko‘rinishdagi murakkab ko‘p ovozli asarlar bilan yakunlanadi. Bu turdagi partituralarning o‘quv qo‘llanmaga kiritilishi o‘quv yurtlarining yuqori kurs talabalari tomonidan fortepianoda ijro etishi va o‘zlashtirishiga mo‘lj allangan.

Musiqiy texnik murakkablik qaysi turga tegishli ekanilgi «O‘quv qo‘llanma» bo‘limlarida ko‘rsatib o‘tilgan (partituraning fortepianoga moslashtirilishi nuqtai nazaridan).

Ushbu o‘quv qo‘llanma musiqa adabiyotlarini har tomonlama qamrab olmasdan, faqat ma’lum hajmda «Xor partiturasini o‘qish» kursi talablariga javob beradi. Qo‘llanma xor partiturasi yozuvining o‘ziga xosligini va muliini xususiyailarini mujassamlashtirgan.

Tavsiya qilinayotgan asarlarni bosqichma-bosqich o‘rganish o‘quvchi va talabalarga zarur bilim, malaka va amaliy ko‘nikma beradi.

Zamonaviy nota yozuvida xor asarlarining ovoz partiyalarini yozish uchun ikkita kalit ishlatiladi:

1. S o l yoki s k r i p k a kaliti.
2. F a yoki b a s kaliti.

Skripka kalitida soprano, alt va tenor partiyalari, bas kalitida esa bas partiyasi yoziladi. Ikki qatorli aralash xor uchun yozilgan asrlarda soprano, diskant va alt partiyalari skripka kalitida, bas va tenorlar esa bas kalitida yoziladi. Bunda ularning yozilishi va eshitilishi bir xil.

Talabalar **“Partitura o‘qish”** fanini o‘zlashtirish jarayonida fortepianoda xor partituralarini ijro etish tamoyillari; pedalizatsiya ya’ni fortepiano pedallarida ijro qilish mahorati; xor partiyasini fortapianoda chalish mahoratini oshirish – tahliliy o‘qish, asta-sekin o‘qib chiqish, sur’atda chalib o‘qish, notaga qarab o‘qishning turlari, eshitish qobiliyatini nazorat qilish, ijrodan oldin ko‘rish va

ansambllarda partiturani varaqdan o‘qish kabi mavzular bilan yaqindan tanishadilar.

## Xor partiturasi haqida umumiy ma’lumot

Partitura so‘zi XV asrda vujudga kelgan italyancha so‘z bo‘lib, “bo‘lish”, “taqsimlash” degan ma’noni bildiradi hamda ko‘p ovozli xor asarlarining nota yozuvini anglatadi. Bu yozuvning o‘ziga xosligi shundaki bir vaqtning o‘zida ijro etiladigan ovoz partiyalari bir necha nota qatorida vertikal ko‘rinishda yoziladi.

**Xay yor-yor**




**Солнце, солнце встаёт**

a. tempo *Вик. Калинников*




Zamonaviy nota yozuvida xor asarlarining ovoz partiyalarini yozish uchun ikkita kalit ishlatiladi:

1.Sol yokiskripka kaliti.

2. Fa yoki bas kaliti.

Skripka kalitida soprano, alt va tenor partiyalari, bas kalitida esa bas partiyasi yoziladi. Ikki qatorli aralash xor uchun yozilgan asarlarda soprano, diskant va alt partiyalari skripka kalitida, bas va tenorlar esa bas kalitida yoziladi (eshitilishi va yozilishi bir xil).

## Xor partiturasi yozuvining turlari

Xor partiturasi yozuvining turli ko‘rinishlari mavjud. Bir nechta xor usarlari solishttrilganda liam lurli miqdorda nota qatori, ovozlar soni va taqsimlanislii ko‘zga tashlanadi. now kalitlari diqqami o‘ziga jalb qiladi. Ba’zi partituralarda kalitlar bir xil, boshqalarida esa turlicha: ayrim partituialarda esa asosiy akkolada bilan birga yana qo‘shimcha kalitlar uchraydi va h.k.

Xor partiuirasining yozuvi avvalambor ovoz partiyalarining tarkibi turi va ko‘rinishi bilan aniqlanadi.

Xor— bu kuylovchilardan tashkil topgan ansambl bo‘lib, u bolalar, ayollar, erkaklar guruhlaridan iborat bo‘lishi yoki alohida har qaysi guruhdan va shu bilan bir qaturda turli guruhlarning qo‘shilishidan tuzilishi mumkin.

Xor faqat bolalar, faqat ayollar yoki faqat erkaklar ovozidan tashkil topgan bo‘lsa, tabiiyki, ular bolalar, ayollar yoki erkaklar xorlari deb nomlanadi. Ularning umumiy turlanish nomi esa bir turdagi xor deyiladi.

Bolalar va ayollar. ba’zan esa erkaklar xorlarining qo‘shilishiga aralash xor deyiladi. Aralash xorning ko‘rinishi va turlanish nomlari bir-biriga mos keladi.

Ba’zan ayollar yoki bolalar xori bitta erkak ovoz partiyasi bilan (tenor yoki kamdan-kam bas) to‘ldiriladi yoki teskarisi — erkaklar xori bitta ayollar yoki bolalar ovozi partiyasi (alt yoki kamdan-kam soprano — diskant) bilan to‘ldiriladi. Bunday xorlarga t o ‘ l i q s i z  a r a l a sh  x o r deyiladi.

Partituralar bir-biridan tuzilishi jihatdan (ya’ni bir turdagi xorlar — bolalar, ayollar yoki erkaklar xori; aralash yoki to‘liqsiz aralash xorlar) farqlanadi. Xorlarning har har qaysi ko‘rinishi va turi ma’lum tarkibga ega bo‘lib, ularning qo‘shilishi natijasida o‘ziga xos xususiyatlar paydo bo‘ladi.

Xor partiturasining aniq turi va ko‘rinishi, qanday ijro imkoniyatiga mo‘ljallanganligi, shubhasiz, musiqa mazmuni bilan bog‘liq. Partituralarning nomlanishi, ovozlarning tartib bilan joylashuvi, nota kalitlari, ovozlarning umumiy diapazoni turli xor partituralarida turlicha bo‘ladi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yhati

1) Oltun Sodiqov Xor partiturasini o‘qish  T. 2005.
2) Qodir Mirzayev. Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Darslik. Respublika metodika va axborot markazi. T.: 2008.
3) Ш.Рўзиев. Хаваскорлик хори билан ишлаш методикаси. Т.1993.
4) Ш.Рўзиев. Хоршунослик. Т.1989.
5) Д.Жумаева. Ўзбек хор мусиқаси тарихидан. Т.2002.
6) Н.Шарафиева. Хор синфи. Мусиқа. Т.2005.

# 7 VOKAL ANSAMBLI

Mutaxassislik fanlarining ichida asosiy kurslardan biri "Vokal ansambli" o‘quv fanidir. Bu fanning asosiy maqsadi talabalarda ansambl bo‘lib ijro qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Vokal ansambli deganda barcha ijrochi xonandalar orasida yangrovchi tovushning yaxlitligi tushuniladi. Vokal ansamblining partiyalari orasida son va sifat munosabatlari mavjud. Vokal ansambl yakka va umumiy turlarga bo‘linadi. Uning tembr (vokal), ohang, talaffuz, dinamik unsurlari mavjud.

Ijro etiladigan asarning yangrashiga nafaqat ansambl ijrochilari, vokal partiyalar, balki ansambl va dirijyor, ansambl va tinglovchilar orasidagi munosabat ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda, ansamblga ta’sir etuvchi vositalarga tessitura va dinamikaning xususiyatlarini hamda o‘zaro munosabatini (o‘rta, past va yuqori tessituralarda dinamika) kiritish o‘rinlidir.

Vokal partiyalar tessitura sharoitidan kelib chiqqan holda, quyidagi vokal ansambllarga bo‘linadi:

- tabiiy ansambl, ya’ni vokal partiyalarning teng va har xil tessitura sharoitidagi tabiiy dinamikasi;
- sun’iy ansambl, ya’ni vokal partiyalarning teng va har xil tessitura sharoitidagi sun’iy dinamikasi;
- aralash ansambl, ya’ni vokal partiyalarning teng va har xil tessitura sharoitida tabiiy va sun’iy dinamikaga egaligi.

Faktura musiqiy matnni bayon etishning asosiy vositasi hisoblanadi. Vokal ansambli garmonik (gomofon-garmonik va akkordli garmonik faktura) va polifonik (kontrast, imitatsion) uslubda, turli fakturaviy ko‘rinishda bayon etilishi mumkin.

Ijrochilar tarkibiga ko‘ra, vokal ansambli quyidagi turlarga bo‘linadi:

- acapella vokal ansambli;
- vokal ansambl va solo partiyalardagi acapella
- vokal ansambl va cholg‘u jo‘rovozligi (turli vokal funksiyalarda) - VCHA
- solo ovozlar va jo‘rovozli vokal ansambl

## Vokal ansambli turlari

Vokal ansambllar bolalar, ayollar va erkaklar ovozlaridan tashkil topib, bir turdagi, to‘liqsiz va aralash ko‘rinishlarga bo‘linadi. Bir turdagi ovozlarga alohida bolalar ansambli, ayollar ansambli yoki erkaklar ansambli kiradi.

1. Bolalar ansambli I va II ovozlariga bo‘linadi.
2. Ayollar ansambli I, II, III ovozlariga bo‘linadi.
3. Erkaklar ansambli I, II, III ovozlariga bo‘linadi.

Bir turdagi ikki ovozli ansambllar bir partiyada tembr va diapazoni bilan yaqin bo‘lgan past ovozlarni birlashtirish natijasida vujudga keladi. Shu tariqa ayollar ansamblida alt partiyasiga messo-soprano va alt, erkaklar ansambliga bas partiyasiga bariton va bas ovozlari kiradi.

Aralash ansambl bir turdagi ovozlarning birlashuvi natijasida hosil bo‘ladi. Asosan ayollar va erkaklar ovozlari, kamdan-kam bolalar va erkaklar ovozlari uchraydi.

Aralash ansambllar: birinchi, ikkinchi ayol ovozlari va birinchi, ikkinchi erkak ovozlari.

Musiqiy asardagi ovozlar sonidan kelib chiqqan holda, yuqorida aytib o‘tilgan har bir tarkib bir ovozli, ikki, uch, to‘rt (va b.) ovozli bo‘lishi mumkin.

Ayollar vokal ansambli - yengil, yorug‘ tembri bilan ajralib turadi. Unga yumshoq yangrash xos. Ayollar ansambli ikki yarim oktava doirasida erkin harakat qilishi mumkin.

Bolalar vokal ansambliga beg‘ubor va yengil yangrash xos. Ansambl diapazoni bolalarning yoshi bilan bog‘liq bo‘lib, unga ovozlarning zich joylashuvi xos.

Erkaklar vokal ansambli katta diapazonga (uch oktavagacha) ega. Bunday xususiyat registlarning kontrastini yorqin namoyish etishga va yangrashni rang-barang ko‘rsatishga imkoniyat yaratadi.

Aralash vokal ansambl murakkab shakllardan biri hisoblanadi. Ansambl rang-barang ifoda vositalariga ega. Bu turdagi ansambl diapazonining hajmi katta bo‘lib, 4 oktavadan ortiqdir.

Vokal ansamblda kuyning bayon etilishi bir ovozli yoki ko‘p ovozli bo‘lishi mumkin.

Birovozlik deganda kuyning bitta vokal partiyada yoki bir nechta partiyada unison ijro etilishi tushuniladi. 1-variantda yorqin tembrli sof vokal bo‘yoqlar hosil bo‘ladi. Ikkinchi variantda soprano ovozining yumshoqligi, yorqinligi va harakatchanligi, altning quyuqligi, tenorning yorqinligi, bas ovozining kuchi va vajohati to‘liq ochib beriladi.

Vokal partiyalarning unison bog‘lanishi yangi - aralash tembrning paydo bo‘lishi bilan belgilanadi. Uning xarakteri ovozlar munosabatidagi (ayollar, erkaklar) bo‘yog‘iga va registrlarning o‘xshashligi yoki farqiga bog‘liq. Bir turdagi ovozlarning unisonda birlashishi yaxlitligi bilan har xil turdagi ovozlar bog‘lanishidan farq qiladi. Ikkala holatda ham unison uchun puxta (to‘liq) yangrash xos.

## Estrada vokal cholg‘u ansambllarida vokal guruh

Vokal faoliyatning asosiy tamoyillari va ahamiyati - vokal yangrash unsurlarining ko‘nikmalaridan bog‘liqligidir.

- ansambl ishtirokchilarining yagona vokal ko‘nikmaga ega bo‘lishi;

Vokal cholg‘u faoliyatning asoslarini amaliy egallashda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

- ansamblda kuylash malakasi;
- ovoz diapazoni (yakka mashg‘ulotlarning bo‘lishi);
- kuylash apparati tuzilishini bilish va asosiy kuylash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- vokal ishlashning umumiy uslubini bilish;

Vokal faoliyatning asosiy mazmun jarayoni nafas olish va tovush hosil qilish ustida ishlashdan iborat.

Insonning kuylash tizimi nafas olish apparati, ovoz apparati, harakatchan va harakatlanmaydigan rezonatorlardan tashkil topadi.

Kuylaganda to‘g‘ri nafas olish uchun nafas olish qonuniyatlari, turlari - nafas olish, nafas chiqarish, nafasni ushlab turish, nafas olish tayanchi kabi holatlar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish lozim.

Tovush hosil qilishda quyidagi omillar asosiy o‘rin egallaydi: tovushning paydo bo‘lishi, uning kuchi va asosiy tembr xususiyatlari. Tovush chiqarish (ataka) va turlari: tovush tayanchi. Tovushning shakllanishi, kuylanadigan tovushning nutq bilan bog‘liqligi: ochiq, yopiq. Rezonatorlar mohiyati. Registrlar: erkaklar ovozida ko‘krak, miya, ayollar ovozida ko‘krak, aralash va miya registrlari. "Tabiiy" tonlar haqida tushuncha, tovush holati "yuqori" holatning kerakligi. Ansamblning turli partiyalaridagi tovushlar ustida ishlash.

## Ayollar vokal guruhi

Estrada vokal ansambli guruhida ayollar ovozini xor amaliyoti singari soprano va altga bo‘lish mumkin. Ular o‘z vaqtida birinchi va ikkinchi ovozlarga (divisi) bo‘linishi mumkin.

Soprano ovozi diapazoni Do birinchi oktavadan Do uchinchi oktavagacha bo‘lib, ko‘proq Mi birinchi oktavadan Sol (lya) ikkinchi oktavagacha oralig‘da ishlatiladi.

Alt partiyasi Fa kichik oktavadan Sol ikkinchi oktava oralig‘idagi diapazonni qamrab olib, asosan Do birinchi (si kichik) oktavadan Do (re) ikkinchi oktavagacha ishlatiladi.

## Erkaklar vokal guruhi

Erkaklar ovozi ham ansamblda ikkita asosiy partiya - tenor va bas partiyalariga bo‘linadi. Tenor partiyasi Do kichik oktavadan Do ikkinchi oktavagacha diapazonni qamrab olib, kichik oktava Mi tovushidan birinchi oktavaSol tovushigacha bo‘lgan oraliq ko‘proq qo‘llaniladi. Tenor partiyasi skripka kalitida bir oktava yuqorida, bas kalitida esa tabiiy yangrashi bo‘yicha yoziladi.

Vokal cholg‘u ansambllarda falset bilan kuylash ham keng tarqalgan. Bunday holatda xonandaning imkon darajasidan kelib chiqib, diapazonning yuqori chegarasi ikkinchi oktava fa va undan ham baland bo‘lishi mumkin.

Bas ovozining diapazoni katta oktava Sol tovushidan birinchi oktava Mi tovushigacha bo‘ladi va asosan katta oktava sol tovushidan birinchi oktava re tovushigacha bo‘lgan oraliq qo‘llaniladi. Asosiy kuy ko‘pincha yuqori va pastki ovozlarda bayon etiladi.

Ayollar vokal guruhida ovozlar tembr jihatdan kam kontrast bo‘lganligi sababli kuy o‘rta ovozda bayon etilmaydi. Erkaklar guruhida esa kuy o‘rta va pastki ovozda ham ijro etilishi mumkin.

Erkaklar vokal guruhida jo‘rovoz vazifasiga pedallarning va polifonik jo‘rovozlikning barcha turlarini kiritish mumkin.

## Aralash vokal guruhi

Aralash vokal guruhining to‘liq tarkibi to‘rtta ayollar va to‘rtta erkaklar ovozlaridan iborat. Unda har bir ovoz alohida partiyani ijro etadi. Ovozlarning bo‘linish hollarida uzun cho‘zimlarni uzluksiz ijro etish uchun xor amaliyotida kuzatilgani kabi, ulama nafas olinadi. Bunda partiyani ijro etishda ijrochilar ketma-ket nafas olishadi. Shu tariqa yangrash vaqti uzaytiriladi.

Aralash vokal guruhi odatda to‘rtta (kam hollarda ikki) nota yo‘lida yoziladi.

Aralash vokal guruh uchun kuyni bayon etishda ayollar va erkaklar ovoziga xos bo‘lgan bayon etish uslublarini kombinatsiya qilish mumkin. Akkordli bayon etishda kuy erkaklar va ayollar guruhlarining yuqori ovozlarida yo‘naltiriladi. Ko‘pincha akkord har bir guruhda ikki ovozli bo‘lishi mumkin. Bunda erkaklar partiyasi ayollar ikki ovozligini oktava pastdan takrorlaydi. Unison va oktava aralash guruhlarda kuyni bayon etishda ko‘p qo‘llaniladigan uslublardan hisoblanadi.

Vokal cholg‘u ansambli amaliyotida kuy yo‘nalishining kombinatsiyalangan usullari ham uchraydi. Erkaklar ovozi kuyni akkordli ko‘rinishda, ayollar ovozi esa bir vaqtning o‘zida ham unison, ham teskarisini kuylashi mumkin.

Ayollar ovozida truba partiyasini unison kuy lash va shu vaqtning o‘zida trombon va saksofonlar partiyasini erkaklar ovozida taqlid qilish ansamblning effektli yangrashini hosil qilishi mumkin. Bu hollarda vokal guruh kuylashi kerak bo‘lgan bo‘g‘inlar (ta, da, bu va bsh.) aniq ko‘rsatilishi zarur. Imkoni boricha damli cholg‘ularning ovozlarini aniqroq ko‘rsatib bera oladigan bo‘g‘inlarni tanlash lozim.

Bu kabi partituralarda vokalistlar partiyasida sakkiztalik va o‘noltitalik cho‘zimlarni cholg‘u partiyasiga xos ko‘rinishda yozish o‘rinlidir.

Aralash vokal guruhning jo‘rovoz vazifasida erkaklar va ayollar guruhining barcha imkoniyatlariga hamda kombinatsiya va polifoniya imkoniyatlariga ega bo‘ladi. 5 ta odamgacha bo‘lgan aralash guruhlarda kuyning akkordli bayonida uni bir turdagi sifatida aranjirovka qilish lozim (aniq ijrochilarning tessiturasini inobatga olgan holda). Yuqoridagi tavsiyalar unisonlar va oktavalarga ham taalluqlidir.

## Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati


1) Oltun Sodiqov. Vokal ansambli. 1-2 qismlar T.: 2004; 2008.
2) Гаранян Г. Аранжировка для эстрадных вокално – инструментальных ансамблей. «Музыка», М.: 1986.
3) Киянов Б, Воскресенский С. Руководство для эстрадных оркестров и вокалных ансамблей. «Музыка», М. –Л.: 1966.
4) Руководство вокальных ансамблей и его профессии. Методическая разработка. Составитель Васильев.Ю Ленинград: 1986.
5) Руководство вокальным ансамблем и организация воспитательного и творческого процесса. Составитель Чабанный В. Ленинград: 1987.
6) Rahmatulla Nosirov. “Vokal” o‘quv qo‘llanma.
Respublika metodika va axborot markazi. T. 2008.

# 8. XOR SOL’FEDJIOSI

Mutahassislikka kirish fanini o‘zlashtirishda xor sol’fedjiosi fanining ahamiyati beqiyos. Xor sol’fedjiosi fanining asosiy vazifalaridan biri vokal jamoalari tashkilotchisi bo‘limi talabalarini kelajakta yuqori malakali rahbat etib tayyorlashdan iborat. Talabalar bu fanni o‘zlashtirish jarayonida havaskorlik jamoalarini tuzishda ishni qay yo‘sinda olib borish haqida ma’lumot oladilar.

Havaskorlik xor jamoalarini tashkil etishda quyidagi belgilarga e’tibor qilish kerak.

1) Xor jamoalarining bosqichlari,
2) Xorsinflari,
3) Ustoz-shogirt tizimi,
4) Hamma musiqiy fanlarning o‘zaro bog‘liqligi,
5) Repertuar tanlash prinsiplari,
6) Xor sol’fedjiosi.

Xor jamoalarining bosqichlari deganda xavaskorlik xor jamoalarining guruhlari tushuniladi. Masalan: bolalar xori, kattalar xori, va h.k.

Xor sinifining asosiy maqsadi madaniyat uyidagi jamoani maktab va boshqa tashkilotlardagi xorlar bilan hamkorlikda ishlashdan ibotat.

Ustoz-shogirt tizimi esa katta guruhdagi tajribali havaskorlarni kichik guruhlarga rahbarlik qilishi tushuniladi.

Hamma musiqiy fanlarning o‘zaro bog‘liqligi deganda quyidagi fanlar tushiniladi:

1) Xor
2) Sol’fedjio
3) Musiqiy cholg‘ular
4) Musiqiy adabiyotlar

Endi yuqoridagilarga qichqacha izox berib o‘tamiz.

1) Xormeyster, xor sinfining yuqori saviyada o‘tishiga javobgar shaxs xisoblanadi.
2) Sol’fedjio o‘qituvchisining asosiy vazifasi esa xor sol’fedjiosini o‘rgatishdan iborat.
3) Cholg‘u sozini o‘rgatuvchi esa havaskorlarning qobiliyatlaridan kelib chiqib, ular hohlagan cholg‘uda o‘rgatishi kerak.
4) Musiqiy adabiyotlarni yaxshi bilish esa to‘laqonli kadr tayorlash imkoniyatini beradi.

Endi sol’fedjio fanini o‘rgatishda nimalarga asosiy e’tibor berish kerakligi haqida qisqacha to‘htalamiz.

1) Sol’fedjioni o‘rgatishda talabalarda o‘zlari kuy ijod qilish qobiliyatlarini shakllantirish,
2) Kuy va uni garmoniyazatsiyalash,
3) Impravizasiya, ya’ni badehago‘ylik,
4) Janr va uslublarni tahlil etish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Demak , xor sol’fedjiosi fanining asosiy vazifasi talabalarda ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalashdan iborat.

Xor sol’fedjiosi fanini o‘rgatishda o‘qituvchi quyidagi uslubiy tavsiyalarga amal qilish kerak:

1) 10-20 daqiqa ovoz sozlash
2) Ovoz sozlash jarayonida akademik va an’anaviy ijro namunalarini uyg‘unlikda olib borish.
3) Xor jamoasining repertuaridan kelib chiqish.
4) Talabalar saviyalarini hisobga olish.
5) Xor sol’fedjiosi mashqlarini o‘tkazishda asosiy e’tiborni nomatish asarlarni o‘qishga qaratish kerak.

6) Xor sol’fedjiosi mashqlarini dinamik belgilarga rioya qilgan holda ijro qilish.
7) Talabalarda ko‘p ovozli kulash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**Xor sol’fedjiosi darsini o‘tishda uslubiy yo‘llar uch asosiy bo‘limga bo‘linadi:**

1) Musiqiysavodhonlikni oshirishda melodic (bir) va garmonik (ko‘p ovozli) sluhni shakllantirish.
2) Lod-funksional sluhni rivojlantirish.
3) Ritmni his qilish qobiliyatini shakllantirish.

Endi yuqoridagi uch asosiy uslubiy yo‘llarga misollar keltiramiz.







Undan tashqari interval, xromatik yo‘llar, tonika-subdominanta ovozlari ham



bor bo‘lib ularni talabalar dars davomida o‘zlashtiradilar.



Ritmni xis qilish qobiliyatini shakllantirish uchun akademik ijro yo‘llaridan tashqari an’anaviy ijro yo‘llaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, Fitrat "O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida "childirma usul"idan namunalar keltirgan. Xor sol’fedjiosi fanining deyarli barcha

mashqlari sekvensiya usulida aytiladi. Sekvensiya ikki turdan iborat: diatonik va hromatik.

Biz quyida diatonik sekvensiyaga misol keltiramiz:




Quyidagi misol xromatik sekvensiyaga xos:




Yuqoridagilardan tashqari kanonlar - oddiy badiyhago‘ylik ya’ni mmitatsiyaning bir ko‘rinishi sifatida xo‘rda ansambl bo‘lib ijro qilish mahoratini shakllantiradi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1) Q. Mirzayev. Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Darslik. Respublika metodika va axborot markazi. T.: 2008.
2) Г. Струве. “Хоровое сольфеджио”. Советский композитор. М.1979.
3) Репертуар детских и юношеских хоров. Вып.10.
4) Фитрат. “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи”. Фан. Т.1993.
5) Ў.Расулов. “Анъанавий ҳонандалик ўқитиш методикаси”. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. Т.2006.

## 9. DIRIJORLIK

Mutahassislikka kirish kursining asosiy fanlaridan bo‘lmish dirijorlik darsi vokal jamoalari tashkilotchisi bo‘lib yetishuvchi talabalarga juda zarur fanlardan biridir. Ushbu fanni o‘rgatishda Jo‘ra Shukurovning "Dirijorlik" o‘quv qo‘llanmasi asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich mashg‘ulotlarning o‘zidanoq talaba qo‘l harakati imo-ishoralarining tabiiyligi, yengilligi, har tomonlama qulayligi va erkinligiyu-egiluvchanligiga e’tiborni qaratish lozim. Ayni mana shu komponentlar bo‘lajak dirijor uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi, chunki mutaxassisning kelajakda yengil, erkin, irodali va ishonch bilan dadil ishlashi bcvosita shu komponentlarga bog‘liq. Bu komponentlar qo‘lning barcha qismlari,ya’ni yelka, bilak, tirsak,panja, kaft, barmoqlar, hatto oyoq tovonlarigacha taaluqlidir. Dirijorlik asoslaridan biri bo‘lmish pozitsiyaga, ya’ni oyoqlarni qanday qo‘yish, gavda, bosh va tanani qanday tutish, qo‘lni qanday qo‘yish kabilar ustida ish olib borishlar ham birinchi mashg‘uiotlardan boshlanishi juda muhimdir. Talaba-dirijordan birinchi navbatda xotirjam va osoyishta bo‘lishi talab etiladi.

Dirijorlikning asosiy holatlari, hamda dirijyorlik apparatining barcha komponentlari haqida aniq ma’lumotga cga bo‘lgandan keyin, takt bo‘ylab dirijorlik harakatlarini boshlashi maqsadga muvofiqdir. Biroq shuni alohidata’kidiashjoizki, sxema bo‘yicha qo‘lni yurgizish - hali dirijorlik emas, balki sxema bo‘ylab qo‘l harakati va dirijorlikka zamin yaratishdan iborat jarayondir, chunki bu badiiyligi bo‘lmagan ifodasiz qo‘l harakatidir. Aytish joizki, dirijor uchun takt bo‘ylab sxcmatik harakat shunchaki oddiy qo‘l harakati emas, balki nafas, energiya, usul(ritm) va tomir urish kabi organizmdir. Bunga erishishi uchun tirishqoqlik va intiluvchanlik bilan yondashish talab etiladi. Auftakt, zarbli nuqta, zarbsiz nuqta, bular barchasi dirijorlikka xos bo‘lgan asosiy elementlar hisoblanadi.

**AUFTAKT** — diqqat nuqtasidan keyingi takt oldi harakatidir.

**ZARBLI** nuqta — birinchi hissadagi ijro nuqtasi.

**ZARBSIZ nuqta** — zarbli nuqtadan keyingi ijro nuqtasi.

Diqqat nuqtasining asosiy vazifasi — ijrochining e’tiborini jalb etish, uni ruhan va ma’nan ijroga tayyorlash, g‘ayratu-shijoatini yig‘ishga qaratilgan. Bularsiz badiiy-ifodali ijroni tasawur ham etib bo‘hnaydi. Diqqat nuqtasidan keyin keladigan **auftaktning** asosiy vazifasi ijrochini asar sur’ati tezligiga xos nafas oldirishdir. Auftakt harakatidan keyin qo‘l zarbli nuqtaga,ya’ni ijro nuqtasiga qarab harakat qiladi. Ijro nuqtasiga erishgach o‘z inertsiyasiga binoan harakatni davom ettirib borishi tabiiy holdir. *Auftakt hissadagi harakat ~ zarb nuqtasi va undan ortga qaytish — bular barchasi o‘zaro bog‘liq bo‘lib bir butunlikni hosil etadi. Aynan shu komponentlarning o ‘zero ta ‘siri orqali musiqaning asosini tashkil etuvchi doimiy o ‘Ichov harakati hosil bo‘ladi.* Dirijorlikda auftakt ijrochilarni ogohlantiruvchi ahamiyatiga ega bo‘lsa, zarbli nuqta ijroni tashkil etish vazifasini bajaradi. Aytish lozimki, nuqta bu to‘xtash emas, balki hissaning haqiqiy bir bo‘lagidir va bu nuqtaning ichki harakati musiqaning xarakteriga bog‘liq, ya’ni tanlangan asarga binoan nuqta keskin, o‘tkir, muloyim, nafis va yana boshqacharoq bo‘lishi mumkin. Asar qaysi xarakterda bo‘lishidan qat’i nazar, nuqta aniq va ravshan bo‘lishi afzaldir.

Dirijorlikda nuqta asosan panjaning harakati hisoblansa-da, qo‘lning qolgan qismlari bundan istisno emas, balki faol bog‘lovchi sifatidagi qatnashuvchidir. Taktning zarbli va zarbsiz hissalarini birin-ketin kelishi katta ahamiyatga ega. O‘lchov sxemasi bo‘yicha qo‘l harakatini yurgiza boshlashdan oldin taktning zarbli va zarbsiz hissalarini alohida ajratib olishimiz maqsadga muvofiqdir. Dirijorlik paytida,ayniqsa zarbli hissaga katta e’tibor berish lozim, chunki bu asosiy harakat tayanchi hisoblanib zarbsiz hissalar zarbli hissalarni to‘ldiruvchi omil desak xatto bo‘lmaydi. Shuning uchun ham biz dirijorlik sxemalariga diqqat bilan e’tibor bersak, qaysi o‘lehov bo‘lmasin, barchasida zarbli hissa harakati past tomonga qaratilgan. Zarbli hissa zarbsiz hissadan nafaqat quwati bilan, balki to‘laqonliligi, baquwatligi va ifodaliligi bilan ham ajralib turishi kerak, aks holda ijro ta’sirsiz va ifodasiz bo‘lib qoladi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, quyidagi elementlar dirijyorlik uchun g‘oyatda muhim ekanligini belgilaymiz:

1. Oyoqlarni qoidaga binoan mustahkam o‘rnatish;
2. Gavdani to‘g‘ri va tekis ushlab turish;
3. DirijorUk paytida tabiiy qulaylik va albattajismoniy crkinlikni his etish;
4. Qo‘lning barcha qismlarini, ayniqsa panjaning erkinligini ta’minlay olish;
5. Mushaklar taranglashuvi (siquvi)ga yo‘l qo‘ymaslik;
6. Zarbli ijro nuqtalarni aniq va ta’kidli ctib ko‘rsatish;
7. Qo‘I harakatining aniqligi va ta’sirchanligiga e’tiborni qaratish;
8. Qo‘I harakatining ixcham, sodda va tejamliligini ta’minlash;
9. Qo‘I harakatining ma’nodorva maqsadga muvofiqligi, ya’ni dirijyorning har bir harakati aniq maqsadga ega bo‘lib o‘zini oqlaydigan bo‘lishlariga erishishlarga qat’iy rioya qilish lozim.

## Uch chorak o‘lchovi uchun dirijorlik sxemalari

Dirijorlik sxemalarini o‘rganish odatdagiday eng sodda o‘lchovdan, ya’ni uch chorak (hissa)li o‘lchovdan boshlanishi maqsadga muvofiqdir, chunki uch chorakli sxema boshqa o‘lchov sxemalariga nisbattan qulayligi va yaqqol ifodaligi bilan ajralib turadi.



Ushbu mashqda har bir qo‘l bilan alohida dirijyorlik qilish, qo‘l harakati paytida har bir choraktalikning bir-biriga bog‘lanib ketishiga, qo‘l harakatlari esa kuychan va ravon bo‘lishiga e’tiborni qaratish lozim.




Agar asar ikki qatorlik yozuvda berilgan bo‘Isa, unda yuqori qator chap qo‘l bilan, pastki qator csa o‘ng qo‘l bilan dirijorlik qilinadi.

**To‘rt chorak o‘lchovi uchun dirijorlik sxemalari**

Chap qo‘l O‘ng qo‘l





To‘rt chorakli sxema ko‘p jihatdan uch chorakli o‘lchovga yaqindir. Uch chorakli sxema bilan to‘rt chorakli sxemalariga diqqat bilan e’tibor bersak, to‘rt chorakli sxema o‘zining yagona ichki ikkinchi hissadagi harakati bilan uch chorakli o‘lchov sxemasidan farq qiladi. Bu o‘lchovda zarbli hissa uch chorakli o‘lchovga o‘xshash bitta emas, balki ikkitadir,ya’ni birinchi va uchinchi hissalar. Quvvat jihatidan bu zarbli hissalar ham bir xil emasligini unutmasligimiz lozim.

**To‘rt choraklik o‘lchov sxemasining dirijorligi uchun mashq:**




Bu mashqning birinchi taktida chap qo‘l birinchi va uchinchi hissada dirijorlik qilib, ikkinchi va to‘rtinchi hissalari to‘xtatilib. ko‘ngilda sanalishi, o‘ng qo‘lning ikkinchi va to rtinchi hissalaridagi harakatga c’tiborni kuchaytirishga imkon beradi. Ikkinchi taktda esa xuddi shuning teskarisiga o‘xshash imkoniyat mavjuddir. Uchinchi va to‘rtinchi taktlar aynan birinchi va ikkinchi taktlarning teskarisi bo‘lib, chap qo‘l imkoniyatlari kcngaygan.

**Ikki chorak o‘lchovi uchun dirijorlik sxemalari**

Ushbu o‘lchov sxcmasi uch chorak va to‘rt choraklik o‘lchov sxemalariga nisbatan, dirijorlik nuqtai-nazaridan qaraganda nisbatan murakkabroq hisoblanadi. Bu o‘lchov dirijorligini o‘zlashtirish talaba uchun birmuncha qiyinroq kechadi. Avvalo birinchi hissadagi qo‘l harakatining oldingilariga o‘xshash tikka pastga emas, balki o‘ziga nisbatan yonroqqa, ijro nuqtasidan kcyingi harakat davomi csa uch chorakli oichov sxcmasiga o‘xshash tikka yuqoriga, yoxud to‘rt choraklik o‘lchov sxemasiga o‘xshash ichkariroqqa emas, balki aksincha ilgaksimon tarzda yondan 45° daraja yuqori tomon harakat qiladi. Qolaversa oldingi o‘lchovlarda qo‘l ijro nuqtasiga borib qo‘nsa, bu o‘lchovda ijro nuqtasining o‘zi mavhumroqdir, chunki qo‘l birinchi hissaning oxirida ilgaksimon harakat qilib, ikkinchi hissaga o‘tib ketadi. Qo‘llar xuddi iigaragi o‘lchovlarga o‘xshash auftaktdan keyin birnchi hissaga qarab harakat qilganda tayanch nuqtasi kaflda bolib, shu hissaning ikkinchi yarmida esa oldingilariday, panja va bilakning oralig‘idagi bo‘g‘inida bo‘ladi. Harakat uch chorakli o‘lchovning uchinchi, yoxud to‘rt chorakli o‘lchovning to‘rtinchi hissasi boshlanadigan joygacha kcladi va oxirgi hissa, ya’ni bu o‘lchovda ikkinchi hissa bo‘ylab qo‘l o‘z harakatini davom ettiradi. Bu o‘lchovda zarbli hissa bitta boMib, o‘lchovning birinchi hissasiga to‘g‘ri kcladi. Shuning uchun qo‘l birinchi zarbli hissa bo‘yicha pastga yo‘naltirilib, ikkinchi hissaga birinchi hissaning davomi sifatida chetdan yuqoriga tomon, ilgak shaklida harakatlantiriladi. Mazkur o‘lchovdagi ikkinchi hissa uch choraklik o‘lchovning uchinchi, yoxud to‘rt choraklik o‘lchovning esa to[L]rtinchi hissasiga o‘xshashdir. Bu o‘lchovda dirijorlik qilishni o‘rganish ham oddiy mashqlardan boshlangani maqsadga muvofiqdir.




Mashqlar jarayonida talaba doira usulini aytib turib dirijorhk qilsa, qo‘llar doyraning «bak», «bum» salmog‘ini his etib harakat qilishlar ustida ishlash mumkin. Shunda dirijoming qo‘llari shunchaki emas, bakli his-tuyg‘ular og‘ushi bilan harakat qilishi mumkin. Dirijorlikning oVganishni bu turi qulay va samarali bo‘lsa, oldingi o‘lchovlarda ham shu uslubda ish olib borish mumkin.




Bu mashqni awalo alohida qo‘llar bilan o‘zlashtirib, keyin ikkala qo‘l bilan dirijorlik qilishni o‘rganish ma’quldir. Dirijorlik paytida qo‘l harakatining birinchi hissaga yurgizganda tikka pastga emas, balki sal yonroqqa yurgizishga e’tibor benlishi zarur.



.. Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yhati

1) J.Shukurov. Dirijorlik. Istiqlol, T.2006.
2) Q. Mirzayev. Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Darslik. Respublika metodika va axborot markazi. T.: 2008.
3) Ш.Рўзиев. Хаваскорлик хори билан ишлаш методикаси. Т.1993.
4) Ш.Рўзиев. Хоршунослик. Т.1989.
5) Н.Шарафиева. Хор синфи. Мусиқа. Т.2005.

## 10. VOKAL (XOR) JAMOALARI BILAN ISHLASH USLUBIYOTI

Mutaxassislikka kirish fanining yana bir asosiy kurslaridan biri Vokal jamoalari bilan ishlash uslubiyoti fanidir. Mazkur kursning asosiy maqsadi talabalarning nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qanday qo‘llash yo‘llarini o‘rgatishdir. Vokal jamoalari bilan ishlash uslubiyoti deganda havaskorlik kollektivlari bilan amaliy ishlash jarayoni tushuniladi. Bo‘lajak mutahassisni shakllantirishda Vokal jamoalari bilan ishlash uslubiyoti fanini o‘zlashtirish jarayonida olgan ko‘nikmalari kelajakda katta ahamiyatga ega.

Vokal ansambllar bolalar, ayollar va erkaklar ovozlaridan tashkil topib, bir turdagi, to‘liqsiz va aralash ko‘rinishlarga bo‘linadi. Bir turdagi ovozlarga alohida bolalar ansambli, ayollar ansambli yoki erkaklar ansambli kiradi.

1. Bolalar ansambli I va II ovozlariga bo‘linadi.
2. Ayollar ansambli I, II, III ovozlariga bo‘linadi.
3. Erkaklar ansambli I, II, III ovozlariga bo‘linadi.

Bir turdagi ikki ovozli ansambllar bir partiyada tembr va diapazoni bilan yaqin bo‘lgan past ovozlarni birlashtirish natijasida vujudga keladi. Shu tariqa ayollar ansamblida alt partiyasiga messosoprano va alt, erkaklar ansambliga bas partiyasiga bariton va bas ovozlari kiradi.

To‘liqsiz ansambllarga bir turdagi ovozlardan biri va boshqa vokal partiyasining qo‘shilishi kiradi.

Quyidagi to‘liqsiz ko‘rinishlar keng tarqalgan:

| | |
|---|---|
| ayollar ovozi I | ayollar ovozi |
| ayollar ovozi II | erkaklar ovozi I |
| erkaklar ovozi | erkaklar ovozi II |

Aralash ansambl bir turdagi ovozlarning birlashuvi natijasida hosil bo‘ladi. Asosan ayollar va erkaklar ovozlari, kamdan-kam bolalar va erkaklar ovozlari uchraydi.

Aralash ansambllar: birinchi, ikkinchi ayol ovozlari va birinchi, ikkinchi erkak ovozlari. Musiqiy asardagi ovozlar sonidan kelib chiqqan holda, yuqorida aytib o‘tilgan har bir tarkib bir ovozli, ikki, uch, to‘rt (va b.) ovozli bo‘lishi mumkin.

Ayollar vokal ansambli - yengil, yorug‘ tembri bilan ajralib turadi. Unga yumshoq yangrash xos. Ayollar ansambli ikki yarim oktava doirasida erkin harakat qilishi mumkin.

Bolalar vokal ansambliga beg‘ubor va yengil yangrash xos. Ansambl diapazoni bolalarning yoshi bilan bog‘liq bo‘lib, unga ovozlarning zich joylashuvi xos.

Erkaklar vokal ansambli katta diapazonga (uch oktavagacha) ega. Bunday xususiyat registlarning kontrastini yorqin namoyish etishga va yangrashni rang-barang ko‘rsatishga imkoniyat yaratadi.

Aralash vokal ansambl murakkab shakllardan biri hisoblanadi. Ansambl rang-barang ifoda vositalariga ega. Bu turdagi ansambl diapazonining hajmi katta bo‘lib, 4 oktavadan ortiqdir.

Vokal ansamblda kuyning bayon etilishi bir ovozli yoki ko‘p ovozli bo‘lishi mumkin.

Birovozlik deganda kuyning bitta vokal partiyada yoki bir nechta partiyada unison ijro etilishi tushuniladi. 1-variantda yorqin tembrli sof vokal bo‘yoqlar hosil bo‘ladi.

Ikkinchi variantda soprano ovozining yumshoqligi, yorqinligi va harakatchanligi, altning quyuqligi, tenorning yorqinligi, bas ovozining kuchi va vajohati to‘liq ochib beriladi.

Vokal partiyalarning unison bog‘lanishi yangi - aralash tembrning pay do bo‘lishi bilan belgilanadi. Uning xarakteri ovozlar munosabatidagi (ayollar, erkaklar) bo‘yog‘iga va registrlarning o‘xshashligi yoki farqiga bog‘liq. Bir turdagi ovozlarning unisonda birlashishi yaxlitligi bilan har xil turdagi ovozlar bog‘lanishidan farq qiladi. Ikkala holatda ham unison uchun puxta (to‘liq) yangrash xos.

Vokal uslublar orasida yangrash tovush chiqarishning turli yo‘llari orqali erishiladigan bo‘yog‘ining (kolorit) o‘zgarishini alohida ajratish lozim. Bular orasida quyidagilar keng tarqalgan:

1. Legato - tovushlarning o‘zaro silliq bog‘lanishi. Legatoni butun ansamblda ijro etish yangrashning yaxlitligi bilan o‘zgacha taassurot qoldiradi. Legato unli harflarda yoki yopiq og‘izda kuylashda yaxshiroq yangraydi. Ansamblda uzun bog‘langan ijro imkoniyati ulama nafas olishga, ya’ni bitta vokal partiyani turli ijrochilarning sezilarsiz nafas almashuviga asoslanadi.

2. Staccato - qisqa cho‘zimlarda uzib-uzib ijro etiladigan uslub bo‘lib, bunda har bir tovush yengil, sezilmas sakrashlar bilan kuzatiladi.

3. Non legato - sezurasiz ijro etish uslubi bo‘lib, tovushlar qisqa ajratib ko‘rsatiladi. sf - tovush yoki akkordda tasodifiy urg‘u, fp yoki pf chekka dinamik nyuanslar orasidagi tez o‘tish orqali alohida tovushlarni ajratib ko‘rsatish ham asarning rivojlanishida ahamiyat kasb etadi.

Tembrni o‘zgartirishda keng tarqalgan vokal uslublardan biri bu yopiq ovoz bilan kuylash hisoblanadi. U tovush kuchini susaytirsa-da uni yumshoq qiladi. Bu usul fonni bezash uchun gomofon tuzilmada ko‘p qo‘llaniladi. Bu uslubni torli cholg‘ulardagi surdinalar bilan taqqoslash mumkin.

Vokal cholg‘u faoliyatning asoslarini amaliy egallashda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

- ansamblda kuylash malakasi;
- ovoz diapazoni (yakka mashg‘ulotlarning bo‘lishi);
- kuylash apparati tuzilishini bilish va asosiy kuylash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- vokal ishlashning umumiy uslubini bilish;

Vokal faoliyatning asosiy mazmun jarayoni nafas olish va tovush hosil qilish ustida ishlashdan iborat.

Insonning kuylash tizimi nafas olish apparati, ovoz apparati, harakatchan va harakatlanmaydigan rezonatorlardan tashkil topadi.

Kuylaganda to‘g‘ri nafas olish uchun nafas olish qonuniyatlari, turlari - nafas olish, nafas chiqarish, nafasni ushlab turish, nafas olish tayanchi kabi holatlar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish lozim.

Tovush hosil qilishda quyidagi omillar asosiy o‘rin egallaydi: tovushning pay do bo‘lishi, uning kuchi va asosiy tembr xususiyatlari. Tovush chiqarish (ataka) va turlari: tovush tayanchi. Tovushning shakllanishi, kuylanadigan tovushning nutq bilan bog‘liqligi: ochiq, yopiq. Rezonatorlar mohiyati. Registrlar: erkaklar ovozida ko‘krak, miya, ayollar ovozida ko‘krak, aralash va miya registrlari. "Tabiiy" tonlar haqida

tushuncha, tovush holati "yuqori" holatning kerakligi. Ansamblning turli partiyalaridagi tovushlar ustida ishlash.

Vokal cholg‘u ansambli amaliyotida kuy yo‘nalishining kombinatsiyalangan usullari ham uchraydi. Erkaklar ovozi kuyni akkordli ko‘rinishda, ayollar ovozi esa bir vaqtning o‘zida ham unison, ham teskarisini kuylashi mumkin.

Ayollar ovozida truba partiyasini unison kuylash va shu vaqtning o‘zida trombon va saksofonlar partiyasini erkaklar ovozida taqlid qilish ansamblning effektli yangrashini hosil qilishi mumkin. Bu hollarda vokal guruh kuylashi kerak bo‘lgan bo‘g‘inlar (ta, da, bu va bsh.) aniq ko‘rsatilishi zarur. Imkoni boricha damli cholg‘ularning ovozlarini aniqroq ko‘rsatib bera oladigan bo‘g‘inlarni tanlash lozim.

Bu kabi partituralarda vokalistlar partiyasida sakkiztalik va o‘noltitalik cho‘zimlarni cholg‘u partiyasiga xos ko‘rinishda yozish o‘rinlidir.

Aralash vokal guruhning jo‘rovoz vazifasida erkaklar va ayollar guruhining barcha imkoniyatlariga hamda kombinatsiya va polifoniya imkoniyatlariga ega bo‘ladi. 5 ta odamgacha bo‘lgan aralash guruhlarda kuyning akkordli bayonida uni bir turdagi sifatida aranjirovka qilish lozim (aniq ijrochilarning tessiturasini inobatga olgan holda). Yuqoridagi tavsiyalar unisonlar va oktavalarga ham taalluqlidir.

Hullas talabalar vokal jamoalari bilan ishlash jarayonida oliygohda olgan nazariy va amaliy bilimlarini jamlab ilk bora amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Yuqorida aytilganlaridan tashqari talabalar ansambl qatnashchilariga asarning ijodkori haqida ham ma’lumotlar berib borishlari shart. Malasan:

## ALIMOV FARHOD (1947)

Farhod Alimov 1970-yili Toshkent davlat konservatoriyasini g‘ijjak mutaxassisligi bo‘yicha dotsent A.Xolmuhamedov sinfida, 1979-yilda kompozitsiya fakultetini professor B.F.Giyenko sinfida tugatgan.

1968-1970-yillarda o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri ijrochisi, A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida (1975-1997), 1998-yildan O‘zbekiston davlat konservatoriyasida pedagoglik faoliyatini olib bormoqda. 2005-yildan professor.

F.Alimov «Muhabbatnoma» baletini, Simfoniya, 2 ta Konsert, «Sayyorani asrang» kantatasi, «Maftuningman Toshkent» vokal-xoreografik poemasi, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun «To‘yona», «Shodiyona», «Tabriknoma» uvertyuralari, «Ona xotirasi» poemasi, Xor akapella asarlari, 10 dan ortiq romans, 100 dan ortiq qo‘shiqlar, «Yusuf va Zulayxo», «Nodirabegim», «Fotima va Zuxra», «Devona», «Soyibxo‘ja operatsiyasi», «Superqaynona I, II» kabi 20 dan ortiq musiqali komediya va dramalar, 10 dan ortiq spektakllarga musiqa, «Mehrobdan chayon», «Muhabbat nidosi» telefilmlariga musiqa yozgan.

F.Alimovning asarlari AQSh, Fransiya, Ispaniya, Germaniya, Koreya, Xitoy, Polsha, Misr Arab Respublikasi, Turkiya, Vengriya va MDH davlatlarida ijro etilgan.

## BAFOYEV MUSTAFO (1946)

O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, A.Qodiriy nomidagi Respublika Davlat mukofoti laureati, kompozitor Bafoyev Mustafo 1969-yil Toshkent davlat konservatoriyasining o‘zbek xalq cholg‘ulari fakultetini dosent V.A.Belenskiy sinfida,

1977-yilda kompozisiya bo‘yicha, 1979-yilda assistenturani professor B.Giyenko sinfida tamomlagan.

1980-yildan O-zteleradiokompaniya qoshidagi D.Zokirov nomli o‘zbek xalq cholg‘u asboblari orkestri dirijyori, badiiy rahbari, bosh dirijyori, 2003-yildan O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti sifatida ishlab kelmoqda.

M.Bafoyev «Umar Xayyom», «Muhabbat osmoni» operalari, «Lison-ut-tayr» opera-feeriya, «Buxoroi Sharif» teleopera-doston, «Ulug‘bek burji», «Nodira», «Moziydan nur» telebaletlari, «Buyuk ipak yo‘li» shou-baleti, «To‘rt unsur» simfoniya-balet, yakka xonanda, xor va simfonik orkestr uchun «Zardushtiylar marosimi» oratoriya-baleti, 7 ta musiqali drama; 5 ta simfoniya, «Bayram» uvertyurasi, «Shiroq haqida afsona» poemasi, 5 ta Konsert, «hajnoma» kantatasi, «Toshkent haqida qo‘shiq» oratoriyasi, 2 ta oratoriya, 2 ta xoreografik-poema; Xalq cholg‘ulari orkestri uchun Poemalar, 3 ta Konsert, «Zarafshon to‘lqinlari» syuitasi, «Sab’ai sayyor» dostoni; Kamer-cholg‘u asarlari, «Konsert-poema», Kvartet, Sonata-poema, torli kamer ansambl uchun «uchta raqs»; «Sozlar nag‘masi», «Yurak nidosi» xor turkumlari, xor va akapella uchun 7 qismli «poema-freska», «Al Xorazmiy yulduzi» xoreografik miniatyura, «Maqom sadolari» xor-poema, «Bahoriya», «Tantanali qasida-poema» va 100 dan ortiq qo‘shiq va romanslar yozgan.

M.Bafoyevning asarlari AQSh, Misr, Germaniya, Fransiya, Turkiya, MDH davlatlarida ijro etilgan.

## MANSUROV AVAZ (1957)

Avaz Mansurov 1982-yilda Toshkent davlat konservatoriyasini professor B.I.Zeydman sinfida, 1986yili assistenturani professor F.M.Yanov-Yanovskiy rahbarligida tamomlagan. 1983-yildan konservatoriyada pedagogik faoliyat yuritib kelmoqda. 2000-yildan professor, o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor.

A.Mansurov turli janrlarda samarali ijod qilib kelayotgan kompozitorlardan. «O‘zga sayyoralik robot», «hayvonlar sultoni» bolalar operalari, «Sharq afsonasi» baleti, 2 ta Simfoniya, «Simfonik poema», «Fazoga intilish» simfonik manzara, fortepiano va simfonik orkestr uchun «Konsert», 7 ta uvertyura, xor va simfonik orkestr uchun qasidalar; Xalq cholg‘u orkestri uchun «Ilonshoh va uning amaldorlari Ari haqida» ertak, «Yangra doira, jarangla!» uvertyurasi, «Moziydan sado» poema-fantaziyasi, damli cholg‘ular orkestri uchun «Karnay sadosi»; kamer cholg‘u asarlari, «Hayvonot bog‘ida sayr» musiqali manzaralar; romanslar, 5 ta myuzikl, 5 ta musiqali ertak, «Bir soatlik xalifa» (Nasrullo Qobul pesasi) musiqali komediya, «G‘allatepalik avliyo» musiqali kinokomediya, 100 dan ortiq qo‘shiqlar - «Chimyon», «Oydin yo‘l», «Talabalar qo‘shig‘i», «Navro‘z» estrada qo‘shiqlari, «Qo‘shig‘im jon qo‘shig‘im», «Kitob, mening do‘stimsan», «O‘zbekiston - ona, onajon» kabi bolalar qo‘shiqlari A.Mansurov qalamiga mansub. A.Mansurovning asarlari AQSH, Fransiya, Germaniya, Bolgariya, Misr, MDH davlatlarida ijro etilgan.

## NORXO‘JAYEV NADIM (1947)

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, kompozitor Nadim Norxo‘jayev 1972-yili Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetini professor G.Mushel sinfida bitirgan.

1972-1975-yillari Bekobod davlat musiqa bilim yurti oʻqituvchisi, 1975-1976-yillarda «Melodiya» firmasi bosh muharriri, 1976-1994-yillarda A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida, 1994-1996 yillarda Yu.Rajabiy nomidagi musiqa bilim yurtida, 1996-yildan Oʻzbekiston davlat konservatoriyasida pedagoglik faoliyatini olib bormoqda. 2003 yildan professor.

N.Norxoʻjayev Simfoniya, Syuita, «Shodiyona» uvertyurasi, «Konsertino», «Simfoniyetta», 2 ta uvertyura, kamer orkestr uchun «Miniatyuralar», 4 ta syuita, «hafta» kantatasi, xor turkumlari, turli cholgʻu orkestrlari uchun fantaziyalar, pyesalar, kamer cholgʻu asarlari, torli kvartet; «Yigitlar tor chertsalar», «Yor menga uzuk taqdi», «Vafodan soʻrarding», «Yeturmiz visoliga», «Qora koʻzim» kabi 100 dan ortiq estrada qoʻshiqlari, «hakkalar», «Yaxshi bola», «Oltin paxtam, oppogʻim», «Salom bergan bolalar» kabi 100 dan ortiq bolalar qoʻshiqlari; «Burgutcha va toychoq», «Ona bolam deydi, bola onam deydi», «Tuyaqush-boyqush», «Sehrli boshoq» bolalar spektakllariga, «Joʻjalarim», «Ajoyib urugʻ» spektakllariga musiqa yozgan.

N.Norxoʻjayevning asarlari MDH davlatlarida va chet ellarda ijro etilgan.

## Tavsiya eyilgan adabiyotlar roʻyxati


1. Mirzayev Q. Vokal jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Respublika metodika va axborot markazi. Darslik. T.: 2008.
2. Гаранян Г. Аранжировка для эстрадных инструментальных вокально инструментальных ансамблей. «Музыка», М.: 1986.
3. Киянов Б, Воскресенский С. Руководство для эстрадных оркестров и вокалных ансамблей. «Музыка», М. –Л.: 1966.
4. Руководство вокалбных ансамблей и его профессии. Методическое разработка. Сост. Васильев В. Лелинград: 1986.
5. Руководство вокалным ансамблем и организация воспитательного и творческого процесса. Сост. Чабанный В. Ленинград: 1987.
6. Rahmatulla Nosirov. “Vokal” oʻquv qoʻllanma.
   Respublika metodika va axborot markazi. T. 2008.

**Mutaxassislikka kirish” fanidan**

**Talabalar bilimini baholash mezoni**

*(2015-2016 o‘quv yili uchun)*

| | | | |
|---|---|---|---|
| Fan uchun ajratilgan soat | 36soat | Maksimal ball | 100 ball |
| Ma’ruza | 24 | Saralash ball | 55 ball |
| Amaliy | | 86-100 ball | “a’lo” |
| Laboratoriya | - | 71-85 ball | “yaxshi” |
| Seminar | 12 | 55-70 ball | “qoniqarli” |
| Yakka | - | 0-54 ball | “qoniqarsiz” |

**III SEMESTR**

| № | Baholash vaqti | Baholash usuli | Ajratilgan ball |
|---|---|---|---|
| **Joriy nazorat – 40 ball** | | | |
| **1** | 20-25 sentabr | Og‘zaki | 20 ball |
| **2** | 22-27 noyabr | Test | 20 ball |
| **Oraliq nazorat – 30 ball** | | | |
| **3** | 20-23 oktabr | Og‘zaki | 15 ball |
| **4** | 20-25 dekabr | Test | 15 ball |
| **Yakuniy nazorat – 30 ball** | | | |
| **5** | 17-29 yanvar | Yozma | 30 ball |